

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK -738 (575.141)

NORQULOVA DILDOR UCHKUNOVNA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AMALIY SAN'ATNING
RIVOJLANISHI (SAMARQAND NAQQOSHLIGI MISOLIDA)**

5A140901- Kasbiy ta'lim (Amaliy san'at) mutaxassisligi

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat berildi.

**“ Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrası
mudiri dots. M. Umarov_____**

Ilmiy rahbar: dots.

H . Jo'rayev _____

M.O'

SAMARQAND-2012

A. Navoiy nomli SamDU 5A140901 –Kasbiy ta’lim (Amaliy san’at) magistratura mutaxassisligi bitiruvchisi Norqulova Dildor Uchkunovnaning “O’zbekiston Respublikasida amaliy san’atning rivojlanishi (Samarqand naqqoshligi misolida)” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga

TAQRIZ

Mustaqil O’zbekistonning ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar negizida to’laligicha zamonaviy va raqobatdosh kadrlar tayyorlash maqsadi yotadi. Zero, yurtimiz jahon ta’limi talablariga javob bera oladigan, bir sharoitda zamonaviy teran fikrlaydigan, intellektual salohiyati yuqori kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tizimining bosh maqsadidir.

Shu boisdan Norqulova Dildor tomonidan bajarilgan “O’zbekiston Respublikasida amaliy san’atning rivojlanishi (Samarqand naqqoshligi misolida)” mavzusida dissertatsiya ishi amaliy san’atidagi naqqoshlik fanidagi dolzarb muammoni tadqiq etishga qaratilganligi bilan diqqatga sazovordir.

Ma’lumki kasb-hunar kollejlari amaliy san’at yo’nalishidagi “naqqoshlik” fani darslari asosiy o’rin egallaydi. Ushbu olib borilgan tajribalar zaminida o’quvchi talabalarni naqqoshlik san’atining ta’limiy o’rganilishidagi imkoniyatlarni aniqlab olish, naqqoshlik fanining amaliy san’atdagi o’rnini aniqlash, naqqoshlikning o’qitilishi jarayonini, o’tilishini o’rganib olish, naqqoshlik san’atiga oid dars ishlanmalarimizni amalda sinab ko’rish va amaliy san’atga oid naqqoshlik san’ati fani Samarqand maktabi misolida o’rganishni takomillashtirish haqida to’xtalib yoritib berilgan.

Ishning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi, vazifasi, muammoning o’rganilganlik darajasi, himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar, ilmiy-amaliy ahamiyati dalillangan.

Ishning birinchi bobi “O’zbekiston Respublikasida amaliy san’at rivojlanishi va uning tarixiy taraqqiyoti” deb nomlanib, uning mazmunida asosiy e’tibor amaliy san’atning rivojlanishi, rivojlanish bosqichlari va uning turlari haqida yoritilib, ochib berishga harakat qilingan.

Ishning ikkinchi bobida “O‘zbekiston Respublikasining amaliy san’atida Samarqand naqqoshlik maktablari” tanlangan mavzu muammosining asosi deb olib qaralgan va Samarqandagi naqqoshlik maktablari haqida yoritilib, boshqa maktablardan farqli tomoni va o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatilib o‘tilganligi bilan ajralib turadi. Unda tadqiqotchi tomonidan qo‘llangan amaliy ish usullari va shakllarini amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lab ochib berishga uringan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida “O‘zbekiston Respublikasining amaliy san’atidagi Samarqand naqqoshlik maktablarida o‘qitishning shakl va metodlari” deb atalib tanlangan mavzu muammosining maqsad va vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha olib borilgan amaliy ishlar tizimi, qo‘llanilgan ish usul, shakllari va ularning ta’lim sifati samaradorligini oshirishdagi natijalarga e’tibor qaratgan. Chiqarilgan xulosalar va ishlab chiqilgan tavsiyalar ilmiylik xarakterga ega.

Shu bilan birga ishda ayrim kamchiliklar ham mavjud bo‘lib, dissertatsiya matnida grammatik xatolar ham uchrab turibdi.

Norqulova Dildor tomonidan bajarilgan “O‘zbekiston Respublikasida amaliy san’atning rivojlanishi (Samarqand naqqoshligi misolida)” mavzusidagi dissertatsiya ishini bajarish bo‘yicha “Nizomiy” talablarga javob beradi. Uning muallifini magistr darajasini olishga loyiq deb hisoblayman va ishini ochiq himoyaga tavsiya etishga munosib deb bilaman.

Samarqand Davlat Arxitektura qurilish
Instituti “Dizayn” kafedrası

prof. E. Muhammadiyev

A. Navoiy nomli SamDU 5A140901 –Kasbiy ta’lim (Amaliy san’at) magistratura mutaxassisligi bitiruvchisi Norqulova Dildor Uchkunovning “O’zbekiston Respublikasida amaliy san’atning rivojlanishi (Samarqand naqqoshligi misolida)” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar

MULOHAZASI

Kasb-hunar ta’limi “Tasviriy va amaliy san’at” ixtisosligi bo’yicha o’quvchilarni tayyorlashda oliy ta’lim o’quv rejasidagi mutaxassislik fanlari tarkibida “tasviriy va amaliy san’ati” fani alohida o’rin tutadi.

Norqulova Dildor tomonidan bajarilgan mazkur tadqiqot ishida oliy pedagogika ta’lim jarayonida “tasviriy va amaliy san’at” fanini o’qitishda talabalarga maktab va kasb-hunar ta’limiga tayyorlash fan dasturining asosiy mazmun va mohiyatida ishlab chiqqan holda amaliy san’atini boshqarish uchun zarur bo’lgan bilimlar tarixi, o’qitish qonun-qoidalarini yoritib berilgan.

Ishning asosnomasida mavzu muammosining o’ziga xos dolzarbligi jihatlari ishonchli dalillar bilan asoslangan, muammoning o’rganilganligi va ta’lim jarayonidagi bugungi holati va uni zamonaviy talablar asosida tashkil etish ilmiy nuqtai nazardan talqin etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida “O’zbekiston Respublikasida amaliy san’at rivojlanishi va uning tarixiy taraqqiyoti” deb nomlanib, uning mazmunida asosiy e’tibor amaliy san’atning rivojlanishi, rivojlanish bosqichlari va uning turlari haqida yoritilib berishga harakat qilingan.

Ishning ikkinchi bobida “O’zbekiston Respublikasining amaliy san’atida Samarqand naqqoshlik maktablari” tanlangan mavzu muammosining asosi deb olib qaralib, Samarqand naqshlaridan foydalanib, naqqosh ustalar asarlarini tahlili qilgan holda boshqa naqqoshlik maktablaridan farqli tomoni va o’ziga xos jihatlari ko’rsatilib o’tilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida “O’zbekiston Respublikasining amaliy san’atidagi Samarqand naqqoshlik maktablarida o’qitishning shakl va metodlari”

tanlangan mavzu muammosining maqsad va vazifalarini, tajriba- sinov ishlarining borishi hamda ularni amalga oshirish bo'yicha olib borilgan amaliy faoliyat mazmuni, qo'llanilgan ish usul, shakllari va ularning ta'lim sifati samaradorligini oshirishdagi natijalari o'z ifodasini topgan.

Ishni bajarilishida tasviriy va amaliy san'at fanini o'qitishda to'plangan, amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan tajribalar va nazariy ma'lumotlar muallif tomonidan yetarli darajada o'rganilgan. Ularni yanada takomillashtirish, yanada ish, usul, shakllaridan foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan va shu bilan birga eng muhim ish nihoyasida ilmiy - amaliy ahamiyatiga moyil xulosalar chiqarilgan va zarur tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ishda ayrim juz'iy hatoliklarga ham yo'l qo'yilgan bo'lsada, u mustaqil izlanish natijasi va tugallangan tadqiqot sifatida e'tiborga loyiqdir.

Norqulova Dildor tomonidan bajarilgan "O'zbekiston Respublikasida amaliy san'atning rivojlanishi (Samarqand naqqoshligi misolida)" mavzusidagi dissertatsiya ishi oliy ta'lim vazirligining magistrlik dissertatsiyalarini bajarishga qo'yilgan talablarga javob beradi deb bilaman.

Ishni shu tarzda ochiq himoyaga tavsiya etishni lozim topaman hamda dissertatsiya yuqori saviyada tayyorlanganini tasdiqlayman.

Ilmiy rahbar:

dots. H.Jo'rayev

Mavzu: “O‘zbekiston Respublikasida amaliy san‘at rivojlanishi (Samarqand naqqoshligi misolida)”

Reja

Kirish.

I Bob. O‘zbekiston Respublikasida amaliy san‘at rivojlanishi va uning tarixiy taraqqiyoti

1.1 O‘zbekiston Respublikasida amaliy san‘atining rivojlanishi bosqichlari va taraqqiyoti.

1.2 O‘zbekiston Respublikasida amaliy san‘atining pedagogik ahamiyati.

1.3 O‘zbekiston Respublikasi amaliy san‘atining o‘ziga xos xususiyatlari

I- bob bo‘yicha xulosa

II Bob. O‘zbekiston Respublikasining amaliy san‘atida Samarqand naqqoshlik maktablari.

2.1 Samarqand naqqoshlik maktabi namoyondalari va asarlari tahlili.

2.2 Samarqand naqqoshlik maktabining boshqa naqqoshlik maktablaridan farqli tomoni.

2.3 Naqshlarning boshqa o‘zbek xalq amaliy san‘atida qo‘llanilishi.

III Bob. O‘zbekiston Respublikasining amaliy san‘atidagi Samarqand naqqoshlik maktablarida o‘qitishning shakl va metodlari.

3.1 O‘zbekiston Respublikasining amaliy san‘atidagi Samarqand naqqoshlik maktabini kasb-hunar kollejlarda o‘qitilishi.

3.2. Tajriba- sinov izlanishlarining natijalari va uning tahlili.

Umumiy xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

**Mavzu: “O‘zbekiston Respublikasida amaliy san‘at rivojlanishi
(Samarqand naqqoshligi misolida)”**

Mundarija

Kirish	3
I Bob. O‘zbekiston Respublikasida amaliy san‘at rivojlanishi va uning tarixiy taraqqiyoti	
1.1 O‘zbekiston Respublikasida amaliy san‘atining rivojlanishi bosqichlari va taraqqiyoti.	9
1.2 O‘zbekiston Respublikasida amaliy san‘atining pedagogik ahamiyati.....	13
1.3 O‘zbekiston Respublikasi amaliy san‘atining o‘ziga xos xususiyatlari.....	17
I- bob bo‘yicha xulosa.....	21
II Bob. O‘zbekiston Respublikasining amaliy san‘atida Samarqand naqqoshlik maktablari	
2.1 Samarqand naqqoshlik maktabi namoyondalari va asarlari tahlili.....	23
2.2 Samarqand naqqoshlik maktabining boshqa naqqoshlik maktablaridan farqli tomoni.....	27
2.3 Naqshlarning boshqa o‘zbek xalq amaliy san‘atida qo‘llanilishi.....	35
III Bob. O‘zbekiston Respublikasining amaliy san‘atidagi Samarqand naqqoshlik maktablarida o‘qitishning shakl va metodlari	
3.1 O‘zbekiston Respublikasining amaliy san‘atidagi Samarqand naqqoshlik maktabini kasb-hunar kollejlarda o‘qitilishi.....	56
3.2. Tajriba- sinov izlanishlarining natijalari va uning tahlili.	70
Umumiy xulosalar	75
Foydalanilgan adabiyotlar	77
Ilovalar	79

Kirish

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: “Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy ma'daniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadryatlarga hurmat. Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash-mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir”.¹

Mustaqil O'zbekistonimiz milliy istiqlol o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan hozirgi davrda yoshlarning oldiga o'lgan vazifalar qo'yadi. Ayniqsa, milliy mafkura, milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviy shakllanish, madaniy meros umuminsoniy qadryatlar sohasida kuchli izlanishlar zarur. O'zgarish va yangilanish ma'naviy barkamollikka erishish uchun avvalo ahloqiy, ma'naviy va estetik tarbiyalarini rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi murakkab globallashtirish davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodni sinfdan va maktabdan tashqari to'garaklar asosida tarbiyalash orqali qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z - o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'ladi. Ota – bobolarimiz ruhiy olamining tomir – ildizlari aynan shu ma'naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchaning havasini tortib kelayotgan olijanob fazilatlar asosida shakllangan.

Xalq amaliy san'ati o'quvchilarda badiiy didni o'stirish bilan bir qatorda ularda borliqni idrok etish madaniyatini va ularga nisbatan estetik munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. U o'quvchilarning badiiy mayllarini amaliy jihatdan to'g'ri yo'naltirish, keyinchalik uy jihozlari, kiyim-kechaklarga to'g'ri munosabatda bo'lishiga, qadimgi va hozirgi zamon amaliy-bezak san'ati asarlarining estetik mohiyatini tushunib yetishga ko'maklashadi. O'quvchilarni xalq ustalari ijodida

1. I.A.Karimov “Yuksak manaviyat -engilmas kuch” T.: «Ma'naviyat» 2008 y. 27-bet

obrazlilik bilan tanishtirish, borliqda estetik munosabatni o'stirishga yordam beradi. Xalq amaliy san'atini o'rganish o'quvchilarning borliqqa estetik munosabatini shakllantirish va badiiy fikr doirasini kengaytirish borasidagina emas, balki u bolalarning tasviriy ijodiy faoliyatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar qadimgi xalq hayoti bilan bog'liq bo'lgan mavzuda rasm ishlar ekanlar, ular bevosita uy jihozlari (so'zana, gilam, patnis, lagan, tovoq, choynak, piyola, quticha, oftoba, la'li, qumg'on, xum, sandiq, choyidish, xontaxta, panjara va h.k), yog'och va ganch o'ymakorligi buyumlarini tasvirlashlariga to'g'ri keladi. Bunda ularga xalq amaliy san'atidan olgan bilim va tushunchalari qo'l keladi. Xalq amaliy san'ati asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarni qondirish, tevarak-atrofga, bog'-rog'lar, uylarni tashqi va ichki ko'rinishiga go'zallik kiritishga xizmat qiladi. Bu san'at dastgox, san'atdan o'zining bevosita xalq, ehtiyojlariga moslanganligi bilan farq qiladi va inson hayotida ishlatiladigan buyumlarning mazmuni bilan bog'lanadi. Amaliy-bezak san'atida xayotdagi mavjud narsalar (masalan, gullar, hayotiy lavhalar va hokazolar) aks etadi. Lekin, ular mustaqil xususiyatga ega bo'lmasdan, ma'lum bir buyum mazmuni va shakli bilan bog'lanib, uni bezashga xizmat qiladi. Amaliy san'at buyumlari birmuncha erkin-ijodkor tafakkuri maxsuli sifatida yaratiladi va u tevarak-atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, jimjimador ustun, eshik, darvozalar, devorlarning tashqi va ichki tomonlariga ishlanadigan rangli naqsh va bo'rtma tasvirlarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin. Xalq amaliy san'ati juda qadim zamonda paydo bo'lib, xalq hunarmandchiligi tarzida rivojlanib san'atning eng qadimgi rivoj topgan va barhayot turi bo'lib kelgan.

O'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan har bir fan, sinfdan tashqari olib boriladigan har bir mashg'ulotdan o'quvchilarni ma'navi-ahloqiy shakllantirish vositasi sifatida foydalanish o'ta muhim va dolzarb masaladir. Chunki mamlakat va xalqning taqdiri kelajagimiz vorisi bo'lgan ana shu yoshlarning hayotga qay darajada tayyor ekanligi va ularning ma'naviy-mafkuraviy barkamolligiga bog'liqdir. Ma'naviyat odamning ruhiy va aqliy olamining majmunidir. U jamiyat, millat yoki ayrim bir kishining ichki

hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushunchadir.

Ma'naviyat keng ma'noda ma' rifat, ma'daniyat tushunchalarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Ahloqiy tarbiya esa shaxsning ona Vatani, hulqi, boshqa millat vakillari , mehnat, insonlar va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini majmuidir.

Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no – mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, mashg'ulotlar orqali esa yoshlarni axloqiy- estetik ruhda tarbiyalash uchun bugun Respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlarni shuning uchun ham to'garak mashg'ulotlari orqali yoshlarni bo'sh vaqtdan unumli foydalanish va o'quvchilarni tarbiyalash ushbu tadqiqot ishining dolzarb muammosi hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi

O'zbekiston Respublikasida amaliy san'at rivojlanishida, Samarqand naqqoshligi misolida ishlab chiqish va xissa qo'shish.

Magistrlik dissertatsiyasining vazifasi

1. O'zbekiston Respublikasida amaliy san'atining rivojlanishi bosqichlari va taraqqiyotini o'rganish va tahlil qilish.
2. O'zbekiston Respublikasida amaliy san'atining pedagogik ahamiyatini yoritish.
3. O'zbekiston Respublikasi amaliy san'atining o'ziga xos xususiyatlari to'plash o'rganish
4. Samarqand naqqoshlik maktabi namoyondalari va asarlari tahlil qilish.
5. Samarqand naqqoshlik maktabining boshqa naqqoshlik maktablaridan farqli tomonini aniqlab berish.
6. Naqshlarning boshqa o'zbek xalq amaliy san'atida qanday qo'llanilishini o'rganish.
7. O'zbekiston Respublikasining amaliy san'atida Samarqand naqqoshlik maktablarida o'qitishning shakl va metodlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'yekti: Kasb-hunar kollejdagi o'zbek xalq amaliy san'ati darslarini o'qitish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Kasb-hunar kollejdagi amaliy san'atning Samarqand naqqoshlik maktablarini o'qitilishi.

Muammoning o'rganganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasida amaliy san'at rivojlanishida prof. R.Hasanov, S.Bulatov, Q.Qosimov, B.Q.Xolmatov, Ye.V.Lebedeva, K.M. G'ulomov, M.B. Ahmedov, M.K. Mirzahmedov, H. Egamov, M. Nabiyeu va ko'plab boshqa olimlarning izlanishlarini misol qilib olishimiz mumkin. Masalan, Q.Qosimovning "Naqqoshlik" [22] kitobini oladigan bo'lsak unda xalq merosidan unumli foydalanish va asrab avaylash haqida beixtiyor to'xtab o'tilgan. Albatta bu kitobda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga va talabalarda estetik didni tarbiyalashga xizmat qiladigan jihatlari ham uchratamiz. Bundan tashqari S.Bulatovning "O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati" [29] kitobida O'zbek xalqining boy meroslari va amaliy san'ati bo'lmish: ganchkorlik, zardo'zlik, naqqoshlik, kandakorlik, tosh o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi, pichoqchilik san'ati, kulolchilik san'ati, zargarlik san'ati, kashtachilik, gilam to'qish san'ati, savat to'qish san'ati va boshqalar haqida ma'lumotga ega bo'lib bilimlarni mustahkamlaymiz. S.Bulatovning yana bir "Rangshunoslik" [22] kitobida esa amaliy san'atning asosi bo'lmish ranglar haqida yoritilib ranglarning jilvakorligini, kelib chiqish tarixi, va qo'llanilish texnologiyasi haqida aytib o'tilgan. Ammo bu risolalarda va kitoblarda "O'zbekiston Respublikasida amaliy san'at rivojlanishi (Samarqand naqqoshligi misolida)" mavzusida ochiqroq yoritilib bermaganligi, bu masala yuzasidan amalga oshirilgan ishlar ozchilikni tashkil qilganligi sababli men dissertatsiya mavzuyimni shu mavzu yuzasidan olishga qaror qildim.

Tadqiqot metodi.

Pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil, anketa, savol-javob, suhbat, kuzatish, analitik obraz, pedagogik tajriba –sinov, matematik statistika.

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti I. A. Karimovning asarlari va ma'ruzalarida bayon qilingan ta'limni isloh qilish, o'quvchilarda ma'naviy-ahloqiy madaniyatni shakllantirishga oid yondashuvlar, sharq mutaffakkirlarining asarlarida ma'naviy-ahloqiy tushunchalar haqidagi qarashlar, ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Xalq ta'limi vazirligining buyruqlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:

- O'zbekiston Respublikasida amaliy san'atining rivojlanishi bosqichlari va taraqqiyotini o'rganilganligi va tahlil qilinganligi.
- O'zbekiston Respublikasida amaliy san'atining pedagogik ahamiyatini ko'rib chiqilganligi.
- O'zbekiston Respublikasi amaliy san'atining o'ziga xos xususiyatlari topib o'rganilganligi
- Samarqand naqqoshlik maktabi namoyondalari va asarlari tahlil qilib berilganligi.
- Samarqand naqqoshlik maktabining boshqa naqqoshlik maktablaridan farqli tomonini aniqlanganligi.
- Naqshlarning boshqa o'zbek xalq amaliy san'atida qanday qo'llanilishini o'rganilganligi
- O'zbekiston Respublikasining amaliy san'atida Samarqand naqqoshlik maktablarida o'qitishning shakl va metodlarini ishlab chiqib amaliyotda qo'llanilgani.

Tadqiqot natijalarining ilmiy – amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijasi “Amaliy san'at” haqida talaba va o'quvchilarda etarli bilimlarga ega bo'lgan holda ma'naviy ahloqiy shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar hamda ilmiy metodik tavsiyalar bilan boyitildi. Shuningdek, O'zbek xalq amaliy san'atining namoyondalari va ularning asarlarini kuzatgan va o'rganilgan holatda talabalarni ma'naviy- ahloqiy shakllantirishning mazmuni, shakli, metodlari, hamda psixologik va pedagogik yo'llari tizimini aniqlab berildi. Tadqiqot natijalaridan san'at kollejlari uchun dastur yaratuvchi mutaxassislar keng foydalanishlari mumkin. Shuningdek, amaliy san'at fakultetlari, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini

oshirish kurslarida ma'ruzalar matni sifatida tadqiqot materyallaridan foydalanishi mumkin.

Ishning sinovdan o'tishi.

Mazkur tadqiqot ishi A.Navoiy nomli Samarqand Davlat Universiteti "Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida yig'ilishlarida, Magistrning ilmiy seminarlarida muhokama qilingan. Tadqiqot ishi kafedrada bo'lib o'tadigan ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalar shaklida e'lon qilingan. "Ziyokor" jurnalining 2012 yilgi 4-sonida "O'zbek xalq amaliy san'atining o'quvchi-yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati" nomli maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi.

Dissertatsiya kirish qismi: III bob, sakkiz band, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhati, ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 79 betni tashkil etadi.

I Bob. O'zbekiston Respublikasida amaliy san'at rivojlanishi va uning tarixiy taraqqiyoti

1.1 O'zbekiston Respublikasida amaliy san'atining rivojlanishi bosqichlari va taraqqiyoti.

Amaliy - badiiy bezak san'ati - san'atning teatr, kino, musiqa, tasviriy san'at turlari qatori mustaqil ahamiyat kasb etadi. U o'z nomiga ko'ra amaliyotda, ya'ni turmushda qo'llaniladigan bezak san'ati ma'nosini anglatadi. Amaliy- badiiy bezak san'ati turli xil buyumlar, ko'chalar, maydonlar, istirohat bog'lari, ishlab chiqarish korxonalari, o'quv-tarbiyaviy muassasalar, sport va madaniy inshootlarni bezatish bilan bog'liqdir. Shuningdek, u kiyim-kechaklar, zargarlik buyumlari bezagini ham o'z ichiga oladi. Amaliy-bezak san'ati kishilar turmushida shunchalik keng qo'llaniladiki, usiz turmushni tasavvur etish qiyin.

Amaliy-badiiy bezak san'ati idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, mebel, interyer, eksteryer bezagi, gazmollar bezagi va boshqa turli bezaklarda qo'llanadi. Amaliy-bezak san'ati nihoyatda qadimiy bo'lib, u ishilarining mehnat faoliyatlari va ehtiyojlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan, san'atning bu turining dastlabki namunalari tosh asrida paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi. Uyg'onish davrigacha u uy hunari shaklida, keyin xalq hunarmandchiligi tariqasida shakllandi. Shaharlarda amaliy-bezak buyumlari maxsus korxonalarda ishlab chiqiladigan bo'ldi. Asta-sekin xalq hunarmandchiligi buyumlari orasida yuksak badiiy saviyada ishlanganlari ham paydo bo'ldi. Natijada, ular amaliy san'at namunalariga aylandilar. Turmushda foydalanish uchun tayyorlanadigan buyumlarning barchasi amaliy san'atga kiradi deb bo'lmaydi. Turmush uchun mo'ljallangan kiyim-kechak, idish-tovoq, amaliy san'at buyumiga aylanishi uchun ularga ma'lum talablar qo'yildi. Ya'ni, ular yuksak badiiy saviyada bajarilishi lozim. Bunda ularning tuzilishi, shakli, bezak kompozitsiyasi ranglari, materiali nazarda tutiladi. Bu talablarga javob bermagan taqdirda, ular hunarmandchilik buyumi qatoridan o'rin oladi. Shuningdek, o'quv mashinalari yordamida tayyorlanadigan buyumlar ham amaliy san'at namunalari bo'la olmaydi. Chunki, ular yuqoridagi talablarga to'la javob berolmaydi.

Jahondagi har bir xalqning o'ziga xos amaliy-bezak san'ati bor. Masalan, Xitoyda chinnisozlik, Rossiyada matreshka o'yinchoqlar yasash. Turkmanistonda gilamchilik, Boltiq bo'yi mamlakatlarida dasturxon va sochiqlar tikish, O'zbekistonda esa kulolchilik, misgarlik, chinnisozlik, kashtachilik taraqqiy etdi. Shunisi diqqatga sazovorki, amaliy-bezak san'atida har bir buyumni tayyorlashda har bir xalq o'z materiali, o'z texnologiyasi, ish uslublari, bezak gullari va ranglarini qo'llaydi.

Amaliy-bezak san'atining asosiy maqsadi kishilar yashaydigan muhitni va o'zini o'rab olgan buyumlarni chiroyli qilishdan iborat. San'atning bu turida go'zallik va qo'llanish (foydalilik) birligi degan ibora bor. U buyumlarni faqat turmushda qo'llanilgandagina go'zal bo'lishi mumkinligini bildiradi. Hatto, ayrim buyumlar bezaksiz bo'lganda ham go'zal va badiiy bo'lishi mumkin. Bunda bu buyumning shakli va materiali katta ahamiyat kasb etadi. O'zingiz tasavvur etib ko'ring, biron bir usta nihoyatda ajoyib bir shakldagi, tuzilishdagi, rangdagi, bezakdagi buyumni yaratgan. U har jihatdan kishilar e'tiborini o'ziga tortdi. Lekin, undan amaliyotda foydalanib bo'lmasa, u narsani go'zalligiga ham bo'lmaydi, Masalan, piyolani chelakdek kattalikda nihoyatda bezakdor qilib ishlansa undan xech kim foydalana olmaydi. Ya'ni, u chiroyli bo'lishi mumkin emas. Amaliy-bezak san'atida shakl muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda buyum hajm jihatdan maqsadga muvofiq ishlansa-yu, uni shakli topilmasa u ham chiroyli yoki badiiy hisoblanmaydi. Masalan, palov uchun mo'ljallangan sopol laganni tog'ora yoki chelak shaklida ishlash mumkin emas. Chunki, u laganni vazifasiga mos tushmaydi. Palovni tog'oradan qo'l bilan olib yeyish ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham amaliy-bezak san'ati buyumini yaratishda buyum shaklini, uning vazifasidan kelib chiqqan holda tayyorlanishi lozim. Amaliy-bezak san'ati buyumlarini tayyorlashda uni materialini to'g'ri tanlash katta ahamiyatga kasb etadi. Masalan, lagan va piyolani yog'ochdan, xontaxta va kursilarni toshdan, kiyim-kechaklarni loy yoki ganchda tayyorlash maqsadga muvofiq emas. Chunki, bu materiallar shu buyumlarning vazifasiga mos kelmaydi. Aytaylik, idish-tovoqlar tayyorlashda usta, unga oziq-ovqat yoki ichimlik solinishini hisobga olishi lozim. Usta lagan tayyorlaydigan bo'lsa, uni metaldan yoki toshdan tayyorlamaydi. Chunki, lagan metaldan tayyorlansa birinchidan og'ir bo'ladi, ikkinchidan unga

suzilgan ovqat tez sovub qoladi. Uni yuvish va tozalash xam ma'lum qiyinchiliklarga ega. Amaliy san'atda ustalar yasaladigan buyumning vazifasiga qarab mavjud barcha materiallardan foydalanadilar. Ular tuproq, tosh, suyak, yog'och, gazmol, ganch, metal va boshqalar. Pushti vaqtlarda sintetik materiallar ham keng qo'llanilmoqda.

Amaliy-bezak san'atini rangsiz tasavvur etish qiyin. Ayrim ustalar buyum materialiga (masalan, yog'ochga) ishlov berib, ularning ta'sir kuchini oshirsalar, boshqa ustalar bo'yoqlar yordamida buyumlarga rang berib ularning ko'rkini ochadilar. Amaliy-bezak san'ati buyumlariga rang berishda ustalar yuqorida qayd qilinganidek, ularning vazifasidan ishlatilgan materiallaridan kelib chiqadilar. Shuningdek, buyumlar qaysi maqsadda kimlar uchun, qaysi vaqtda, qayerda ishlatilishiga qarab rang tanlaydilar. Masalan, kiyimlar uchun rang tanlanganda, ular qaysi jinsdagilar, qaysi yoshdagilar, qaysi vaqtda kiyilishi (bayram, to'y kunlari, motam kunlari, xizmat vaqtida v.b.) ga e'tibor beriladi. Masalan bayram va to'ylarda kiyiladigan kiyimlarda quvnoq va jarangdor ranglar ishlatilsa, kundalik kiyimlarda vazminlik, xotirjamlik hislarini uyg'otuvchi ranglar qo'llaniladi. Kasalxona interyerini bezashda qo'llanilgan ranglardan o'quv yurtlari yoki o'quv muassasalarini bezashda foydalanib bo'lmaydi. Chunki, ranglar odamlarga turlicha ta'sir ko'rsatadilar. Shu maqsadda kasalxonalarining bezagida ko'proq kasallar tinchlantiruvchi, yengil, tiniq ranglar ishlatilsa, o'quv yurtlari va ishlab chiqarish korxonalarida kishilarni xayajonlantiruvchi, tetiklashtiruvchi, jonlantiruvchi ranglar qo'llaniladi. Bayram kunlari (kiyimlar tayyorlashda ularga iliq ranglarni berilishining sababi kiyimlarni ko'rgan odamlarda ko'taringkilik, quvonch hosil qilish nazarda tutiladi. Kundalik kiyimlarda bunday ranglar ishlatilsa, ular odamlarni tez charchatadi va bezovtalantiradi. Xullas, ranglar shunday kuchga egaki, xattoki qamoqxona devorlari yorqin, yengil iliq ranglar bilan bo'yalgan taqdirda u kishilarda qamoqxona emas, madaniyat muassasasining binosiga kirilgandek taasurot qoldiradi.

Amaliy - bezak san'ati buyumlarida yana bir muhim jihat ularning o'lchovlari hisoblanadi. Bu degan so'z amaliy-bezak san'ati buyumini yaratuvchi har bir usta yaratilajak buyumning vazifasini e'tiborga olib, uning o'lchovini to'g'ri olishligini bildiradi. Xususan, choynakni xumdek kattalikda, so'zanani dastro'moldek yoki ayollar

taqinchoqlari solinadigan qutichani sandiqdek o'lchovda yasash mumkin emas. Aks holda, ular foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Shunday qilib, amaliy san'at buyumlari ularning vazifasi, shakli, bezagi, materiali, rangi, o'lchovlariga rioya qilishni talab etadi. Shundagina, bu buyumlar kishilarni xayajonlantiradi, to'liqlantiradi va ularga zavq bag'ishlaydi.

Hozirda amaliy-bezak san'ati ikki yo'nalishda rivojlanmoqda:

1. Badiiy hunarmandchilik. Bu yo'nalishga ayrim korxona, zavod, fabrikalar kiradi, Buxorodagi zardo'zlik buyumlari, Xivadagi gilamdo'zlik, Rishtondagi sopolsozlik korxonalari shular jumlasidandir.
2. Xalq amaliy-bezak san'ati. Bu yo'nalishda asosan mustaqil ravishda ish olib borayotgan ustalar mahsulot ishlab chiqaradilar.

Birinchi yo'nalish bo'yicha badiiy buyumlar ishlab chiqarish korxonalarida ko'p nusxada tayyorlansa, alohida ustalar faoliyatida buyumlar soni nihoyatda chegaralangan bo'ladi. Bu esa ularning badiiyligini yuqori bo'lishligiga olib keladi. Bunday korxonalar mebelsozlik, pichoqchilik, kashtachilik soxalarida ham bor.

Xalq amaliy san'ati har bir xalqda mavjud bo'lib, ular bir-birlaridan yuqorida qayd qilinganidek, amaliy san'atning janrlari, buyumlar tayyorlashda qo'llanadigan materiali, shakli, tuzilishi, rangi, bezagi, o'lchovlari jihatidan bir-birlaridan farq qiladi.

Xalq amaliy san'atining yana bir muhim harakterli belgilaridan biri bu ming yillar davomida xalq ustalari ijodida qo'llanib kelingan badiiy an'analar hisoblanadi. Bu xususiyat ko'proq xar bir xalqning u yashayotgan muhit, tabiati, iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Chunki, amaliy san'at ustasi o'z asarini yaratayotganda u go'zallikni tevarak-atrofdan, tabiatdan oladi. Masalan, o'zbek xalq ustalari o'z ishlarida toychoq, qo'zichoq to'vus tasvirlarini, shimoliy o'lkalarning ustalari bug'u, kiyik tasvirlarini ishlaydilar. Asar materialiga esa o'zbek ustalari ganch, loy, mis kabilarni, shimoliy xalqlar yog'och va xayvon suyaklarini ko'proq ishlatadilar. Yuqorida qayd qilganimizdek, asar koloritiga iqlim ham ta'sir ko'rsatadi. Shimoliy o'lkalar iqlimi sovuq bo'lgani uchun u yerdagi ustalar ko'proq sovuq, ranglarni, issiq, iqlimli O'zbekiston ustalari ko'proq iliq ranglarni qo'llaydilar. Shunday qilib, har bir xalqning amaliy-bezak san'atida o'z an'analari shakllanadi.

1.2 O'zbekiston Respublikasida amaliy san'atining pedagogik ahamiyati.

Xalq amaliy san'ati tarixdan juda ko'p rivojlanish davrlarini boshidan kechirgan. Lekin mazmun va mohiyat faqat yangi ijodiy ko'rinishlar bilan boyitilgan. Jumladan istiqlol yillarida ham o'ziga xos rivojlanish davri bo'ldi. Xalq ustalari o'z asarlari bilan jaxon saxnasiga chiqdilar. Masalan Rishton kulolchilik maktabida 1000 dan ortiq kulollar ijod qilmoqdalar. Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg shahrida qator ko'rgazmalarda qatnashdilar. Shulardan 130 tasi «Xunarmand» xalq ustalari birlashmasining a'zolaridir. Zargarlik san'ati so'ngi o'n yillik mobaynida birmuncha jonlandi. Unutilib borayotgan an'analar tiklana boshladi. Hozirda samarali ijod qilayotgan usta zargarlar qatoriga Dadamuxamedovlar sulolasi, G.Yo'ldasheva R.Muxametshin, M.Nozirxonov, Sh.Nizomov, M. Olimov kabi ustalarni kiritish mumkin. Zamonaviy zargarlik buyumlari-tumorlar, sirg'alardan «Uch ko'zacha», « Oy baldoq », «Qoshqar baldoq» singari buyumlarga zamonaviy shakl berilmoqda. Mustaqillik yillarda O'zbekiston ganchkorlik san'ati azaliy an'alariga suyangan holda rivojlanmoqda. Hozirda ijod qilayotgan ustozlar maxalliy maktablardagi mavjud an'analarni asrab-avaylagan holda ijod qilayotganliklarini alohida ta'kidlab o'tish joyiz. 1990 yillar O'zbekiston yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik san'ati tarixida yangi bosqich bo'ldi. Ushbu maktablarni asosan Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Xiva maktablari tashkil etmoqda. Toshkent xotira maydoni, Samarqand Imom Buxoriy majmuasi, Oliy majlis binosi, Amir Temur muzeyi binosi, yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik san'atining yorqin namunasidir. Umuman olganda xalq amaliy san'atining barcha turlari mustaqillik yillarida yangidan chiroy ochdi va jilolandi. O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan amaliy san'at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashxur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritar ekanmiz, O'zbek amaliy bezak san'atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya'ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvoxi bo'lamiz. O'lkamiz zaminidagi arxeologik qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvoxlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlanib, asrlar o'sha hozirgacha davom etib kelmoqda. Bizgacha ibtidoiy jamoa tuzumida ashyoviy

dalillar -mexnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Tuproq ostida qolib ketgan tarixiy yodgorliklar odam va xayvonlar jasadining qoldiqlari, qor va yerto'la devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi. Paleolit davrida amaliy-dekorativ san'at namunalari ham keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga extiyoj paydo bo'lganligi arxeologlar tomonidan topilgan ashyoviy buyumlarda namoyon bo'lmoqda. Odamlarning o'troq holga o'tishlari, tabiat qonun-qoidalarini kuzatish simmetriya, ritm, shakl tuyg'ularini o'sishiga sabab bo'ldi. Bir xil elementlarning tekis qaytarilishi yoki oralab kelishi asosida vujudga keladigan o'ziga xos naqqoshlik san'atini maydonga keltirdi. Naqqoshlik yangi tosh (neolit) asrida keng yoyildi, dekorativ-amaliy san'atning taraqqiy etishga ta'sir ko'rsatdi va yordam berdi. Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to'lqinsimon chiziqlar, aylanalar shu davrdagi ko'pgina naqshlarning asosini tashkil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, xayvonlar va o'simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan, rozetka-quyosh ramzi, to'lqinsimon chiziq-harakat, suv ramzi va hokazo. Naqqoshlik san'ati endilikda dekorativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki shu bilan birga, kishilarning g'oyaviy va falsafiy tushunchalarni ham ifodalay boshladi. Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlagan sopol buyumlar diqqatga sazovordir. Temir asrida ham dekoartiv-amaliy san'at yetakchi o'rinni egallaydi. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli kompozisiyalardan foydalanish alohida rivojlangan. O'rta Osiyoning qadimgi davri san'ati va madaniyatini o'rganishda yer ostidan, qabrlardan topilgan turli dekorativ amaliy san'at namunalari, jang, ov va mehnat qurollari ham muhim rol o'ynaydi. Sopol buyumlar, bronza, oltin, kumushdan ishlangan, kishilar extiyoji uchun ishlatiladigan buyumlar yuzasi naqshlar bilan bezatilgan, bo'rtma tasvir va haykallar bilan pardoqlangan. Ayrim buyumlar yuzasiga

esa hayotiy voqealar aksi tushirilgan. Ana shu daliliy materiallar o'tmish san'ati va madaniyati, kishilarning estetik, badiiy qarashlarini bilishga xizmat qiladi. O'zbekiston hududida arxeologik qazilmalardan Xorazm, Sug'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqqoshlik san'atining rivojlanganligi ma'lum. Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (I-asr) budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari buning yaqqol dalilidir. Eramizdan avvalgi IV-VI asrlarda O'rta Osiyodagi badiiy hayot va madaniyatni tushunishda Amudaryoning yuqori oqimi tomonidan topilgan "Amudaryo boyligi" (Oke boyligi) muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu yodgorliklar ichida oltindan yasalgan haykallar, turli ko'za, bilaguzuk, uzuk, muhr, tangalar, oltindan yasalgan arava va qurollar diqqatga sazovordir. Buyuk sarkarda Iskandar Zulqarnay (Aleksandr Makedonskiy) eramizdan avvalgi IV asrlarda Axmoniyar davlatini tor-mor etib, O'rta Osiyo yerlarining ko'pgina qismini o'ziga qaratib oldi. Faqat Xorazm, Farg'ona va Sirdaryo bo'yidagi ko'chmanchi qabilalargina o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Amaliy san'atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stilizatsiya - ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lgan va hozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg'unligidan va mujassamligidan dalolatdir. Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy- axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi. Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, buyrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu soxalarda nom qozongan ustalarning hizmatlari butun jahonga dong'i ketgan. O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda ota-bobolarimiz

ko'rgan muxtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda. Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma'noni bildirib, u qush, xayvonot, o'simlik dunyosi, geometrik va boshqa turli shakllarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi. Naqqoshlik xalq-amaliy bezak san'atning bir turi sifatida qadimdan o'zbek madaniyatining muhim bo'lagi hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy an'analari vujudga keldi va rivojlandi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog'liqligini, milliy an'analarning davomiyligini ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o'gilga o'tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqqoshlik san'ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof -muhitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chizgilar uyini musiqadagi ohang singari, qo'shiq va ertak kabi "xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan" tarkib topgandir. Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg'unligida va o'ziga xos kompozisiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh usta o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan va uyg'unligidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi. O'zbekistonning an'anaviy me'morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jimjimador arklarni, saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari, yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llangan. Nozik o'simliksimon-geometrik naqshdagi o'zaro singib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o'zbek ustalarining ishlaridagi islami va girix naqshlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga moslangan. Naqsh ko'proq interyerlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi.

1.3. O'zbekiston Respublikasi amaliy san'atining o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston dekorativ-amaliy san'ati qadim zamonlarda vujudga kelgan xalq san'atining eng ajoyib tarkibiy qismlaridan biridir. U o'zining rivojlanishida ko'p yillar va asrlarni bosib o'tgan, goh yuksalgan, goh pasaygan, lekin unda badiiy an'analarning avloddan- avlodga o'tishi hech qachon to'xtamagan.

O'zbekiston xalq san'ati quyidagi asosiy yo'nalishlarga ega:

1. Kulolchilik
2. Charmdo'zlik
3. To'qimachilik (to'qish, ipak bilan tikish, zardo'zlik, gilamchilik, gul bosish, bezakli jiyak tikish)
4. Metallga ishlov berish hunarmandchiligi — zargarlik, misgarlik
5. Boshqa badiiy hunarmandchiliklar — musiqa asboblari yasash, papye-mashe usulida naqshlar ishlash, bezakli nosqovoq savat va hokazolar tayyorlash. Arxitektura inshootlarini bezash bilan bogliq hunarmandchiliklar — ganch va yog'och o'ymakorligi, mar-mar o'ymakorligi va boshqalar. Hunarmandchilikning ana shu turlarida xalq ustalari faqat foydali buyumlarni emas, balki shaxarlar hamda qishloqlar turmushining bezagi bo'lmish badiiy asarlarni yaratadilar. Bizning rivojlangan asrimizda, fan-texnika taraqqiyoti asrida, arzon va qulay zamonaviy buyumlar turgan joyda sopol idishlar, yog'och qoshiq va tarelkalarning, ko'zalarning xojati yuqdek tuyuladi. Darhaqiqat, plastmassa va alyumindan tayyorlangan arzon hamda yengil narsalar mavjud bo'lgani xolda metall patnis va qumgonlarning nima keragi bor? Gap kishilarning go'zallikka ehtiyojidadir. Odamlar o'z atrofida bir qolipdagi ommaviy buyumlar emas, balki qo'lda yasalgan va o'zida tabiiylik hamda nafislikni mujassamlantirgan dekorativ san'at predmetlari bo'lishini istaydi. Xalq orasida, masalan, Xiva va Rishton naqshlari ishlangan idishlar, laganlar, Buxorolik, Samarkandlik, Toshkentlik ustalar zarxal ipaklar bilan bezagan milliy kiyimlar, do'ppilar, kuylak va tuflilar keng tarqalgan. Xalq san'atini asosan mexnatkash xalq ya'ni kosib va xunarmandlar vujudga keltirgan. Hunarmandchilikning ayrim turlari ko'p asrlik tarixga va juda qadimiy an'alariga ega. O'tmishda badiiy naqsh me'morchilik bilan chambarchas bog'liq bo'lgan U ikki turga bo'linadi: yog'ochga va

alebastr suvoq ustiga ishlanadigan naqshlar. Ilgari devorlar (panno), shift va karnizlar naqshlangan. Bunday naqshlar tuxum va yelim aralashtirilgan suvli buyoqlar bilan ishlangan. Yorqin, sof tonli, bir-biridan keskin ajraladigan buyoqlardan foydalanilgan. Hozir ham devorlarga ishlangan naqshlarda o'tmishning sevimli motivlari — guldondagi ko'rkam guldasta, egilgan majnuntol va hokazolar ko'proq ifodalanadi. Yog'ochlardagi naqshlar yaxshi saqlanmaydi. Chunki yog'och tez chiriydi va shunga ko'ra ana shu san'atning qadimiy namunalari bizga yetib kelmagan. Lekin uning qadimiy an'analardagi yuksak mahoratni isbotlovchi misol sifatida Buxorodagi XVI asrga mansub Baland machit shiftiga ishlangan ajoyib naqshlarni ko'rsatish kifoyadir. Ko'p olimlar, shoir va yozuvchilar xalq ijodiga juda katta qiziqish bilan, faqat estetik zavq manbai sifatida emas, balki sosial omil, kishini tarbiyalashning eng muhim vositalaridan biri sifatida qaraydilar. O'zbek amaliy xalq ijodiga katta ahamiyat berdi va xalq san'atiga extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish zarurligini qayta-qayta o'qtirdi, xalq ijodi keng tarbiyaviy imkoniyatlarga ega ekanini, shaxsga kuchli estetik ta'sir ko'rsatishini ta'kidladi. Dekorativ-amaliy san'at chuqur an'analarga ega bo'lib, unda xalqning dilidagi fikrlari, ruhi ifodalanadi, jonajon o'lkaning go'zalligi aks etadi. San'atning bu turi O'rta Osiyo territoriyasida, jumladan, O'zbekistonda juda rivojlangan bo'lib, o'z vaqtida faqat Sharqning ko'p mamlakatlaridagi emas, balki G'arb mamlakatlaridagi xalq san'atiga ham ta'sir ko'rsatgan. Rus hamda chet ellarning olimlari va rassomlari O'rta Osiyo xalqlari san'atiga tushungan holda va zavqu shavq bilan munosabatda bo'ldilar. Ularning asarlari orqali ana shu an'anaviy sharq san'ati jahonga mashhur bo'ldi. Xalq san'ati an'alarini saqlash va o'rganishda badiiy hamda o'lkashunoslik muzeylari muhim rol o'ynadi. 20—30-yillar muzeylar qurish avj olgan davr bo'ldi. Ana shu davrda ko'pchiligi respublikamizda hozir ham mavjud muzeylar barpo etildi va xalq ustalarining asarlaridan qimmatli kolleksiyalar to'plandi. O'zbekistonlik juda ko'p iste'dodli ustalar: Xojibobo Hayotov, Hafiz Ibragimov, Majid Qurbonov, Olimjon Qosimjonov, Abdulla Boltayev, Yoqubjon Raufov, Saidmaxmud Norquziyev va boshqalar 20—50-yillardagi xalq dekorativ-amaliy san'atining mashhur namoyandalari qatoridan faxrli o'rin oldilar. Ular o'zbek xalq dekorativ-amaliy san'atining shonli an'alarini muvaffaqiyatli davom ettirdilar va

davom ettirmoqdalar. Naqqoshlik dekorativ-amaliy san'atning bir turi sifatida qadimdan o'zbek madaniyatining muhim elementar hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy an'analari vujudga keldi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog'liqligini, an'analarning davomiylashni ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rgatish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o'g'ilga o'tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqsh san'ati hozirgacha saqlanib qoldi. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof-muhitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chiziqlar uyini musiqadagi oxang kabi, qo'shiq va ertak kabi «xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan» iborat bo'ladi. O'zbek xalq naqqoshligiga doimiy qiziqish, uning tarixiy — madaniy roli shu bilan belgilanadiki, san'atning bu turida ham epos va musiqadagi, she'riyat va raqsdagi kabi xalq xarakterining nozik xususiyatlari, uning estetik qarashlari, didi, hayotni his etishi ifodalangan. Yaqindagina naqqoshlik san'atning unutilayotgan turlaridan biri hisoblanar edi. So'nggi yillarda badiiy naqqoshlikka qiziqish kuchaydi va u tez tarqala boshladi. Yosh ustalarning ishlari shuhrat qozondi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Fargona, Qo'qon, Andijon, Namangan, Shahrisabz va respublikaning boshqa shaharlari hamda rayonlaridagi turli kasblarda ishlaydigan kishilar bo'sh vaqtlarida naqsh bilan shug'ullanmoqdalar. Usta naqqoshlarni go'zallik ustalari deb atalgan va haqiqatan ham shunday. Badiiy naqqoshlik — ranglarning uyg'unligida va original kompozisiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh (usta) o'z ishida rangning tabiiy jilosidan, bejirim shakldan, material fakturasidan moxirlik bilan foydalanib yorqin ifodalilikka erishadi.

O'zbekistonning an'anaviy me'morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni: jimjimador araqilarni saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llangan. Nozik o'simliksimon-geometrik naqshdagi o'zaro singishib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o'zbek ustalarining ishlaridagi islami va girix naqshlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga moslangan. Naqsh ko'proq interyerlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qilgan. Tekis devorlarni bezashda aniq sistema mavjud

bo'lgan. Devorlarning vertikal (panel, devor yuzasi, araqi) va gorizontal (turli panno, tokcha, xoshiya) yo'nalishlarda o'ziga xos tarzda qismlarga bo'linishi o'zbek an'anaviy binokorligining karkasli qurilishidan kelib chiqqan. Ustalar mazkur sistemani buzmaganda o'zaro oxista qo'shilib ketgan ajoyib medalonlar, geometrik kataklar yoki gullagan shoxlar, turli guldastalar, gultuvakdagi gullar, daraxtlar, ba'zan xatto peyzajlar bilan to'ldirilgan chiroyli baland pannolarning g'oyat xilma-xil naqsh kompozitsiyalarini yaratganlar. Shuningdek, ular turli ko'rinishdagi xoshiyalarni, uchburchakli o'yiqlardan iborat — ensiz, go'yo bir maromda yugurib ketayotgandek tuyuladigan o'simlik novdalaridan iborat enli xoshiya va hokazolarni ishlaganlar. Mahalliy me'morchilikning arxitektura konstruksiyalariga va detallariga tarkibiy bog'langan naqshlar butun inshootga mukammallik va o'ziga xoslik baxsh etgan Hozirgi paytda naqshdan arxitekturada, mebellar, sovg'alar, mayda yog'och o'yinchoqlar, musiqa asboblari va turmushda kerakli buyumlarni bezashda foydalaniladi. Ko'p yillik tarixiy rivojlanish natijasida badiiy naqqoshlikning moxir ustalari tomonidan badiiy g'oyalarni va keng diapazonli badiiy mazmunni ifodalashning turli texnikasi yaratildi. Bu hol naqsh san'atining hozirgi davr estetik prinsiplarini gavdalantirishdagi katta g'oyaviy-badiiy imkoniyatlarini, uning turar joy va jamoatchilik binolari interyerlarining garmonik hamda estetik boy qiyofasini yaratishda to'la ishtirok etishini ko'rsatadi.

I- bob bo'yicha xulosa

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar manaviy, marifiy, mafkuraviy, kasbiy jihatdan mutloqo yangi zamon kishisini shakllantirishni talab etadi. Hozirgi zamon yoshlarini milliy, sharqona, tarixiy qadriyatlarni hisobga olgan holda, zamonaviy ruhda tarbiyalash hamda ijobiy insoniy fazilatlarga ega bo'lgan kasb soxiblarni tayorlash muommasi davlat miqiyosidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda respublika hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama andozalari talablari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga talim-tarbiya berishda madaniyat, qadryat, milliy san'at namunalaridan, ota - bobolar tomonidan yaratgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmogda. Ta'lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo'l va uslublar yig'indisi o'qitish metodikasi deyiladi. Darslarni to'g'ri tashkil etish o'gituvchini o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ham bog'liq. Shu bilan birga darslarni nazariy ham amaliy qoidalariga asosan o'tilsa, o'quvchilarni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Amaliy san'at fani naqqoshlik asosida xalqimizning milliy ma'naviyati sifatida bunyodkorlik ayniqsa, milliy me'morchilikning ajralmas qismidir. Qadimiy va boy an'analarga suyangan holda xalq san'atini rivojlantirish va yangi zamonaviy binolarni milliy ruhda bunyod etishda san'at maktablarini o'rganish, mashhur xalq ustalari ijodlarini davom ettirish va hayotga tadbiq etish bilan badiiy asarlarni ishlab chiqarishni tashkil etadi. Shuning uchun ushbu fan asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, ishlab chiqarish tizimining ajralmas bo'g'inidir. Amaliy san'at fani darslarida fanga oid turli adabiyotlar, ko'rgazmali qurollar, zamonaviy texnika vositalardan keng foydalanish va yangi axborot texnologiyalarini qo'llash katta ahamiyatga ega. Amaliy san'at darslari yanada samarali o'tishi uchun quyidagalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- ta'limning zamonaviy texnikaviy vositalarini qullash;
- darslarda yangi pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanish;
- darslarda xalq og'zaki ijodi namunalari, usta-shogird an'alaridan keng foydalanish;

- talabalar ishlaridan ko'rgazmalar qilish;
- ko'rgazmali qo'rollardan foydalanish;
- talabalarni o'z kasbiga qiziqtirish yo'llaridan unumli foydalanish;
- talabalarning individual xususiyatlarini, universitetning moddiy bazasini hisobga olish;
- naqqoshlikda ishlatiladigan atamalarning lug'aviy ma'nosini atroflicha o'rganish va boshqalar

Mavjud ta'lim–tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risidagi farmon va «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturning negizini tashkil qiladi. Amaliy san'at fani tasviriy san'at, chizmachilik va amaliy san'at o'qituvchilarni tayyorlashning tarkibiy qismi hisoblanadi. Qadim zamonlardan yurtimizda xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik rivojlanib kelgan. Bu boy me'rosni rivojlantirishda xalq ustalari, naqqoshlar, me'morlar, kulollar, toshqaroshlar va boshqa san'at ustalari ijod qilib kelishgan. Ular qoldirgan me'rosni o'rganish va uni rivojlantirishda amaliy san'at fanining o'rni kattadir. O'lkamizning shahar va qishloqlari turmush hayotimizni yanada chiroyli va qulay buyumlari, yashash sharoitlari yaratishimiz uchun hamda jahon andozalari darajasida ishlab chiqarish salohiyatini oshirishimizda fanning o'z o'rni bor. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi o'z sohasida chuqur ma'lumotli mutaxassis bo'lmog'i, zamonaviy san'at jarayoni yo'nalishlarini yaxshi anglab tushunishi, o'tmish madaniy me'rosimizga esa to'g'ri baho bera olishi, tasviriy san'at va amaliy san'at terminlarini chuqur bilishi va har xil turli badiiy materiallar vositasida amaliy ishlarni puxta bajara olish zarur. Amaliy san'at fani nazariy va amaliy mashg'ulotlardan iborat. Naqqoshlik mahoratini puxta egallashda talabalar bilan olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar o'rni beqiyosdir. Amaliy mashg'ulotlarda naqshlarning mohiyati, xususiyati, nafis tasvirlash, vazifalarni metodik ketma-ketlikda bajarish uslubi to'g'risida to'liq ma'lumot va tavsiyalar beriladi. Har bir naqsh ishlari metodik jihatdan puxta o'ylab tuzilishi kerak. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda olingan bilimlar talabalarning mustaqil mashg'ulotlari jarayonida yanada mustahkamlanadi.

II Bob. O'zbekiston Respublikasining amaliy san'atida Samarqand naqqoshlik maktablari.

2.1 Samarqand naqqoshlik maktabi namoyondalari va asarlari tahlili.

O'zbek xalqining qarovsiz yotgan madaniyat durdonalari, tarixiy yodgorliklarini saqlash va madaniy merosini to'plashni davlatimiz o'z zimmasiga oldi. Madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyati tuzildi. 1918 yili 5 dekabrda qadimiy arxitektura yodgorliklarini va san'at asarlarini hisobga olish va saqlash haqida dekret chiqarildi. Naqqosh ustalar ham boshqa ustalar qatori machit, madrasa, turar joylarni, saroylarni ta'mirlashni boshlab yubordilar. 30-yillardan so'ng ko'pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat uylari, saroylarni va boshqa joylarni yog'och naqsh va ganch bilan bezatila boshlandi. 1938 yili Moskvadagi Butunittifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasidagi O'zbekistan restorani va pavilonlarini bezashga naqqoshlarni safarbar qilindi. U yerda ajoyib namoyonlar, qandillar; o'yma eshiklar, o'yma ganchlar va naqshlar bilan bezatildi. 1939 yilda Samarqand va Buxoroning eng yaxshi ustalaridan 12 kishi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi binosini ajoyib naqshlar bilan bezadilar. Shu yillari «Baxor» kontsert zalini ham naqsh, ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. 40-yillarda qurilgan Muqimiy, Navoiy teatri binolari ajoyib naqsh, ganch va yog'och o'ymakorliklari bilan bezatildi. Naqqoshlik san'atini rivojlantirishda ajoyib xalq ustalari Farg'onalik Saidmaxmud Norquziyev, toshkentlik Toxir To'xtaxo'jayev, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov. Jalil Xakimov, Xivalik Abdulla Boltayev, S. Xudoyberganov, X. Raximov, Samarqandlik Jalol va Bolta Jalilovlar, usta Madaminjon Xusanov va boshqalar hamda ularning shogirdlari yaratgan asarlar hozir ham xalqqa xizmat qilyapti. Ular avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan naqqoshlik san'atiga katta xissa qo'shdilar. Ular o'zbek naqshlarining elementlariga yangicha elementlar (o'roq va bolta, kabutar, paxta, yulduz va boshqalar) yangicha g'oyalar kiritdilar. Lekin o'zimizning an'anaviy o'zbek xalqining o'ziga xos milliy san'atini saqlab qoldilar. Ular zamonaviy binolarga moslab o'zbek milliy naqsh elementlari bo'lmish nozik majnuntol nixollari, anor bo'togi, guli butalar va boshqa o'simliklarni tasvirladilar. XX asrning urtalarida naqqoshlik san'ati yanada rivoj topdi. Devorlarga manzarali monumental tasvirning mashxur ustasi

Chingiz Axmarov Sharq miniatyurasining eng yaxshi namunalaridan hamda O'rta Osiyo xalqlarining badiiy merosidan ilxomlanib ajoyib devoriy rasmlar yaratdi. O'zbek xalqi ikki ming yil davomida xalq amaliy san'atining shunday ajoyib namunalarini yaratdi va yaratib kelmoqda. Naqqoshlar o'zlarining yuksak badiiy maxorati va nazokati bilan bugungi kunda ham kishilarni xayratga solmoqdalar. Naqqoshlik san'ati O'rta Osiyoda juda qadimiy bo'lishi bilan birga, ajib, o'ziga xos, betakror namunalari bilan ajralib turadi. Har bir naqshning tashqi ko'rinishini ifodalovchi ajib bir gullari, yaproq, novda, islimi, girixi kabilar bilan birga chuqur ichki ma'nosi bor. Bunda har bir shakl aniq o'lchamda, hamohang bo'lishi, ranglar did bilan o'zaro mutanosib tanlanishi kerak. Ma'lumki, O'rta Osiyoga islom dinini kirib kelishi bilan joriy etilgan jonli mavjudot tasvirini ishlashning man qilinishi tasviriy san'atni rangtasvir, haykaltaroshlik kabi turlarini rivojlanishiga to'sqinlik qilgan, biroq, xalq amaliy san'ati, xususan naqqoshlik san'ati keng taraqqiy etishiga ham katta turtki bo'lgan. Binolar, turli idish-tovoqlar, buyumlar, qurol-aslahalar naqsh bilan bezatildi. Shaharlar husniga ko'rk bo'lgan qadimiy obidalar, masjidu, madrasalar, xonoqo va maqbaralar naqsh bilan bezatildi, ganch va yog'och o'ymakorligi keng ko'lamda qo'llanildi. Ana shunday milliy san'atimiz bo'lgan xalq amaliy san'atining bizgacha etib kelishi va rivojlanishida mashhur ustalar Usta Shirin Murodov, Yusufali Musaev, Umrzoq Ahmedov, Ota Polvonovlarning hissalarini beqiyosdir. Farg'ona naqqoshlik maktabi nomi bilan tilga olinadigan Xo'jand, Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublarda ijod qilgan ustazoda Saidaxmad Norqo'zievni ham alohida ta'kidlash joizdir. Bugungi kun yoshlari ularning ishlarini sadoqat, ixlos, mehr-muhabbat bilan o'rganmoqdalar.

Samarqand naqshlari Toshkent, Farg'ona naqshlariga o'xshab ketadi. Samarqand naqshlari o'ta guldorligi barg va gullarining badiiy xarakatchanligi, jonliligi bilan farq qiladi. Unda murakkab girixlar, Farg'ona naqshlariga o'simliksimon naqshlari bilan aniq bir ritmik takrorlanuvchan naqshlar kompozitsiyasi bilan Toshkent naqshlariga o'xshash. Avval zangori rang gammasida ko'p naqsh bajarilgan bo'lsa. Hozir esa yashil rang gammasida ko'proq naqshlar bajariladi. Samarqand naqqoshlik maktabini

yaratishda «Usta Raxmonxol, usta Jamoliddin (Mirjamol), usta Maxmud, usta Abdujabbor, usta Abduzoxid, usta Sharif, usta Aminjon, usta Bako» keyinchalik usta Jalol va Bolta Jalilovlar kabi naqqoshlar asos soldilar va bebaxo xissalarini qo'shdilar.

Muxammad Murod Samarqandiy 1616 yilda Buxoroda bo'lgan. U Sa'diyning «Buston» asariga miniatyura chizgan. So'ng bu asar Juybor shayxlaridan Abduraxim Xo'jaga tuxfa qilingan. O'rta asr o'zbek miniatyura san'atining yana bir ko'zga ko'ringan taniqli musavviri Muxammad Murod Samarqandiy o'zining g'oyat kuchli tasviriy qobilyati, asarlarni jonli, ifodali realligi bilan ajralib turadi. «Shoxnoma» asarida uning 115 illyustrasiya miniatyurasi uning o'z davrining yetuk san'atkori ekanligidan dalolat beradi. U qoyat kuchli dramatik syujetlarni o'z asarlarida ifoda etadi. Asarlarida o'z davrining sosial xayoti to'laqonli ifoda etib berilgan. Uning «qo'zg'olon» asarini kuzatar ekanmiz asar qaxramonlarini g'oyat aniq tashvishli, g'azabkor va jonli ifoda etganligini kuzatamiz. Asardagi ranglar ham o'ziga xos qo'zg'olish ruhida beriladi. Murodni rang tanlashi ham o'zidan avvalgi musavvirlardan boshqacharoq kompozisiya syujetlari va ularga tanlangan ranglarda alohidalik reallik xukm suradi. Murod Samarqandiy - mashxur naqqosh va mashxur atoqli musavvir. Murod Samarqandiy XVI asrda yashab ijod etgan rassom. Murod Samarqandiyning otasining ismi haqida ham xech qayerda xech nima berilmagan. Murod Samarqandiyni ayrim sharqshunos olimlar uni tug'ilgan va vafot etgan yilini aniq ko'rsatib bermaganlar. Murod Samarqandiy juda yoshligidanoq rasm chizishga kirishadi. U rasm chizishni eng oddiy elementlarini katta zexn bilan o'rganadi. Yosh Murod tabiat elementlaridan o'z rasmlari kompozisiyasida foydalanishga, badiiy asarlar syujeti bo'yicha rasm ishlashga asosiy e'tiborni qaratadi. U birgina rasm chizib qolmay badiiy asarlarni ham mutoala qilib turar edi. Ko'pgina manbalarda ko'rsatilishicha u davrda Xirotda Alisher Navoiy boshchiligida 40 a'zoga ega bo'lgan yetuk rassomlar xattotlar, me'morlar, musiqashunoslardan tashkil topgan «Ilmiy kengash» faoliyat ko'rsatar edi. Shu bilan birga Mirak Naqqosh rahbarligida «Nigoriston» san'at akademiyasi ham bu davr san'ati va madaniyati rivojida muhim o'rin tutgan holda Murod Samarqandiy ijodining ravnaqida ham katta ta'siri bo'lganligini ham aytib o'tishimiz joizdir. U Xusayn Boyqaro hamda Oqa Mirakdan ta'lim olgan. Uning Xirotda yashagan

chog'idagi asarlari bizgacha yetib kelmagan. XVI asr 30-40 yillarida chizgan suratlarida 30 yaqini kashf etilgan. U xamma miniatyurachilar kabi shoir va buyuk mutafakkir Alisher Navoiy suratini ham chizgan. Mir Alisher Navoiy chehrasi to'qri tasvir etilgan bo'lib chikadi. Chunki Murod Samarqandiy ham Bexzod singari shoir mir Alisher Navoiy bilan birga bo'lgan. Mazkur surat 1931 yili Londonda tashkil etilgan Eron san'ati ko'rgazmasida namoyish etilgan edi. Xozir Texronda shoxanshox kutubxonasida saqlanadi. Biz Mir Alisher Navoiy suratini ko'zdan kechirar ekanmiz, u usta san'at egasi tomonidan chizilganligiga shubxa qilmaydi. U shoirning yuksak choqlarini tasvirlab, chehrasi ancha manodor chizilganligini aniq namoyon etib turibdi. Uning ko'zlari risolidek, kimnidir diqqat bilan, bor fikri zikri bilan tinglayotgandek tuyulardi. Surat yuqorisida «Sur'atiy Amiri Kabir Mir Alisher» degan yozuv bor.

2.2 Samarqand naqqoshlik maktabining boshqa naqqoshlik maktablaridan farqli tomoni.

Farg'ona naqshi Xo'jand, Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan, Chuyet, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublardan iborat XIX asr va XX asr boshlariga mansub bo'lgan naqshlar ko'plab osori atiqalarda saqlanib qolgan. Qo'qondagi Madalixon daxasi va Dahai Shohon, Xudoyorxon o'rdasidagi va boshqa naqshlar o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lsa-da Farg'ona naqshlarida ko'proq Buxoro. Xiva naqshlarining ta'siri bor. Xattoki rus naqqoshlarining uslubi ham unda-munda uchrab turadi.

Lekin Farg'ona vodiysida o'ziga xos naqqoshlik maktabi rivoj topgan edi. Farg'ona naqqoshlari girih, o'simliksimon (islmiy) va gulli girih naqshlarini bezaklarda qo'llaganlar. Kompozisiyalarning simmetriyali bo'lish prinsipiga amal qilganlar. U boshqa naqqoshlik maktablaridan naqshlarining tabiatga juda yaqinligi, erkin ishlanishi, ranglarining kontrastligi bilan farqlangan. Bulardan tashqari Farg'ona naqshlarida tabiatdagi gul, barg, g'uncha va boshqalardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanilgan. Chunonchi Farg'ona naqshlariga qarasak, lista gul, anor, atirgul, majnuntol, bodomgul va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. Farg'ona vodiylaridagi naqsh kompozisiyalarning tabiatga juda yaqinligi Toshkent, Xiva va Samarqand naqshlaridan ajralib turadi. Farg'onada naqqoshlar chetlari chiroyli qilib, ichiga islmiy shakl tushurilgan kompozisiyalarini yaratdi. Uning naqshlaridagi ranglarning ochiqligi, yorqinligi hamda bir-biriga uyg'unligi kishini o'ziga jalb qiladi. Naqsh kompozisiyasi tuzilishi jihatidan an'anaviy milliy naqshlarga doimo yangi element va motivlar kiritgan. Yo. Raufov kompozisiya tuzishda sodda, uzoq-yaqinini yaxshi bilardi. U naqsh kompozisiyalarini uzoqdan kam ko'rinishini ta'minlar edi. Usta naqsh ishlashda ko'proq chirmoviqsimon o'suvchan islmiy mazmundagi naqshlari bilan va katta-kichik yuzalarni to'g'ri taqsimlashi hamda mayda kichik buyumlar formasiga nixoyatda uzviy ravishda birlashib ketgan odmi naqshlarning kamsuqumliligi bilan ham ajralib turadi. Yo. Raufovning naqshlarini kuzatar ekanmiz, naqsh sxemasini erkin, chiroyli shakllar hosil qilib ishlanganligi hamda naqsh elementlaridan unumli foydalanganligini ko'ramiz. Uning naqshlarining ko'pchiligi tojik naqshlariga o'xshab ketadi, uning gullari yirik-

yirik hamda o'ziga xos detallardan iborat. U bargli gullar besh va sakkiz bargli gullar, ya'ni «Xitoy afsonlari» hamda oddiy gullardan foydalangan. Usta tumorchiligi naqsh tartibida naqsh kompozisiya tuzib, har bir tumor gulni aniq oq chiziq bilan ajratib, ularning zaminini esa turli ranglar bilan bo'yagan. Usta turli shaharlarga borganda har bir joyning o'ziga xos an'anasiga moslab naqsh bajargan. U hamma joyda ham bir qolipdagi naqshlarni xech qo'llamay, yangi-yangi naqshlar to'qib, tuzib bo'yagan. Yo. Raufovning yirik me'morchilik inshootlariga yoki maishiy buyumlarga ishlagan naqshlarini kuzatsak chiziq va ranglarning bir-biriga g'oyat Toshpo'lat Arslonqulovni sezamiz. Usta ko'k, xavorang yonida pushti rang qo'llashi naqshni buzmay balki, bu ikki rang bir-birini to'ldiradi, butunlik xosil qiladi. Uning xayoti davomida turli shaharlarda qilgan ishlari o'ziga xos maktab vazifasini o'tadi, tajribasini boyitdi. Yo. Raufov naqshlarni bo'rttirib, tilla halli nozik plastinkalarni ham qo'lladi. Ya'ni kundal texnikasidan ham foydalandi. Bu texnikada naqshlarni bajarilishi o'ziga xos joziba, ko'rinish berishini ko'ramiz. Usta muhtasham binolarning peshtoqlari, aroqilari, navolari, shiftlariga bergan naqshlari bino chiroyini yanada ochadi hamda xonalarga fayz va alohida latofat bag'ishlaydi. Sharqqa mashxur bo'lgan naqqosh Maoniy aytganidek «agar kimki rasmdagi har bir chiziqqa jon bag'ishlay olar ekan, u san'at kalitini egallagan bo'ladi». Ana shu san'at kalitini egallagan har bir chiziqqa jon bag'ishlay olgan buyuk san'atkorlardan biri Yo. Raufovdir. Usta har bir naqshni to'g'ri va aniq chiqishiga hamda bir-biriga bog'lanishiga intilgan. Ustaning naqshlariga nigox tashlar ekanmiz, islimiy patnis, islimi gul, islimi mexrob, pechak islimi aroki, chor islimi aroki, qo'shtanob pechak islimi, yakraftor islimi, turunji aroqi islimi va boshqa naqsh kompozisiyalarni ko'p uchratamiz. Naqsh turlari ichida eng ko'p tarqalgan va murakkab turi girix bo'lib, uni hamma ustalar xam ishlay olmagan. Uni chiza olgan haqiqiy naqqosh hisoblangan. Ko'pincha ustalar girixkor (girix chizuvchi usta) ustaga chizdirib, keyin ular binolarga yoki buyumlarga qo'llar edilar. Yo. Raufov esa girix, naqshni qiynalmasdan bemalol chiza olar edi. Usta o'z ijodiy faoliyatida ko'proq medalon kompozisiyalarni qo'lladi. Uning ishlagan xar bir kompozisiyalari umumiy yaxlit butunlik kasb etadi. Yo. Raufov yog'ochga naqsh ishlashdan oldin yog'ochni qum qog'ozda tekislab alif moyi surkab, keyin uning sirtini mahsus massa bilan tekislab

naqsh chizgan. Naqsh tayyor bo'lgandan so'ng egar moyi yoki fabrika loki berilgan. Egari moyi surilgan naqsh yoritilgan hamda bezatilgan yuzani darz ketishidan, chirishidan saqlagan. Yo. Raufov tabiiy tayyorlangan bo'yoqlarni, loqlarni yaxshi ko'rar edi hamda naqshlarning sifatli chiqishiga katta e'tibor berar edi. Yo. Raufov yillar davomida tajribasi oshib sodda va oddiy usulda bajarilgan naqshlar murakkablashib bordi va bo'yoqlarning rang-barangligi yanada oshdi. Kompozitsiyalarida ko'pincha qizil, jigarrang, yashil, to'q sariq, xavoranglardan foydalandi. Ustani aniql va sermanzara naqshlari baland hamda keng shiftlarni bezashda yaxshi natijalar berdi. Yo. Raufov naqsh kompozitsiyalarini juda erkin, yengil mustaqil, qiynalmasdan chizardi.

Xiva naqshi Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Buxoro naqshidan tubdan farqladi. Rangi jihatidan kelsak, naqshlarning umumiy rangi ko'pincha xavorang koloritda ishlanadi. Ranglar kam ishlatilsa-da, o'ziga xos ko'rkamlikka ega. Xiva naqshida asosan zangori va yashil ranglar juda ko'p ishlatiladi. Xorazm naqshlari butun yuzani geometrik naqshlar bilan to'ldirib moviy va yashil bo'yoqlar berishni yaxshi ko'rganlar. Kompozitsiyada naqshlarning tuzilishiga qaraganda, asosan novda spiralsimon aylanib-aylanib murakkab naqshlar xosil qiladi. Islimiy naqsh kompozitsiyada novda, marg'ula, shukufta, barya, nuxat gul, oddiy oyguldan tashkil topadi. Bu islmiy naqshlar boshqa shaharlardagi naqqoshlik maktablaridan asosan naqshlarning dinamikaviyligi bilan farqladi. Ko'pincha yulduz hosil qiluvchi girixlar ishlatilib, orasiga spiralsimon islmiy naqsh ishlatiladi. Xiva naqshlari umuman madoxili naqshlar asosida tuziladi. Keyin esa islmiy naqsh spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqqoshchilik maktabining namoyandalari Abdulla Boltayev, Ro'zimat Masharipov, Odamboy Yoqubov, Eshmurod Sapayev va boshqalar, Buxoro naqqoshlik maktabi. Buxoro naqshi hamma naqshlardan naqsh kompozitsiyalarining murakkabligi, mukammalligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlarida murakkab girixlar aniql, puxta o'lchamda ishlatilishi o'simliksimon naqshlarning o'ziga xos san'at bilan ishlangani naqshlarning yaproql, meva, gul barglar ritmiga aloxida e'tibor berilishi bilan farqlanadi.

Naqqoshlik san'ati O'rta Osiyoda juda qadimiy bo'lishi bilan birga, ajib, o'ziga xos, betakror namunalari bilan ajralib turadi. Har bir naqshning tashqi ko'rinishini

ifodalovchi ajib bir gullari, yaproq, novda, islimi, girixi kabilar bilan birga chuqur ichki ma'nosi bor. Bunda har bir shakl aniq o'lchamda, hamohang bo'lishi, ranglar did bilan o'zaro mutanosib tanlanishi kerak. Ma'lumki, O'rta Osiyoga islom dinini kirib kelishi bilan joriy etilgan jonli mavjudot tasvirini ishlashning man qilinishi tasviriy san'atni rangtasvir, haykaltaroshlik kabi turlarini rivojlanishiga to'sqinlik qilgan, biroq, xalq amaliy san'ati, xususan naqqoshlik san'ati keng taraqqiy etishiga ham katta turtki bo'lgan. Binolar, turli idish-ovoqlar, buyumlar, qurol-aslahalar naqsh bilan bezatildi. Shaharlar husniga ko'rk bo'lgan qadimiy obidalar, masjid, madrasalar, xonoqo va maqbaralar naqsh bilan bezatildi, ganch va yog'och o'ymakorligi keng ko'lamda qo'llanildi. Ana shunday milliy san'atimiz bo'lgan xalq amaliy san'atining bizgacha etib kelishi va rivojlanishida mashhur ustalar Usta Shirin Murodov, Yusufali Musaev, Umrzoq Ahmedov, Ota Polvonovlarning hissalarini beqiyosdir. Farg'ona naqqoshlik maktabi nomi bilan tilga olinadigan Xo'jand, Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublarda ijod qilgan ustazoda Saidaxmad Norqo'zievni ham alohida ta'kidlash joizdir. Ajdodlarimiz qurgan saroy, masjid, maskanlar devoridagi nafis naqshlarni ko'rib quvonamiz, bahridilimiz ochiladi. U bizga estetik, ma'naviy zavq bag'ishlaydi. Lekin estetik zavqning o'zi kifoyami yoki bu naqshlar biror-bir ma'noni anglatadimi, degan fikrga xam ba'zan boramiz. Tasavvuf she'riyatda Allohga muhabbat, insonga oqibat, hayotga ishq naqadar go'zal obrazlar orqali yoritilganligi hammamizga ma'lum. Bu muhabbat, bu ishq, bu go'zal sermazmun iboralar faqat adabiyotdami yoki boshqa san'at turlarida xam bo'lganmi? Bizningcha, bu faqat adabiyotda bo'lib qolishi mumkin emas. U san'atda ham o'z ifodasini topgan bo'lishi lozim. Chunki adabiyot va san'at hamma vaqt bir-birini to'ldirib kelgan. Lekin bizlar naqshlarning ramziy ma'nosini yoritadigan manbalarga to'liq ega emasmiz. Naqshlar oldida lol qolamiz, uning go'zalligiga maftun bo'lib, undagi ma'noni o'qish yodimizdan ko'tariladi.

Samarqandda o'rta asrlarda qurilgan Shirinbeka oko, Tuman oqo, Bibixonim, Qozizoda Rumiylar maqbaralari interyerida manzara tasviri ishlangan. Tadqiqotchi S.S. Davidov bu dalil bo'yicha G.A. Pugachenkova va L.I. Rempellarning maqbara devoridagi manzara tasviri jannat ramzini ifodalagan, degan fikrlarni inkor etadi va bu manzaralar maqbara

devorlarida o'rnatilishi lozim bo'lgan darcha (deraza) ramzini ifodalagan hamda o'rta asrlarga xos maqbara xuddi jannatmakon bog' markazida o'rnatilgan saroy g'oyasini anglatgan, ya'ni «Alloh uning joyini jannat bog'iga aylantirsin», degan iboraga asoslangan deb ta'kidlaydi. Bizningcha, mazkur olimlar fikri bir-biriga zid emas. G.A.Pugachenkova va L.I.Rempellarning fikricha, maqbara ichi jannatmakon bog' ramzini ifodalasa, S.S. Davidov bo'yicha esa marhum yotgan maqbara jannatmakon bog' o'rtasida joylashgan saroyini va uning darchalaridan jannat bog'i manzaralari ko'rinib turadi, degan ma'noni anglatgan. Ikkala tahlilda ham manzara tasviri jannat bog'i bilan bog'liq ramziy ifodani anglatgan. Samarqandda Bibixonim, Tuman oqo maqbaralari interyerida yil bo'yi ko'm-ko'k bo'lib turgan va terakka o'xshab bo'y cho'zgan igna bargli sarv daraxti surati ishlangan. Sarv (kiparis) daraxti ko'p xalqlar tafakkurida o'lgan odam ruhining doimiy kelib turadigan joyi xisoblangan. Doimo ko'm-ko'k libosga burkangan sarv daraxti doimiy xayot allegoriyasining o'ziga xos ko'rinishini anglatgan. Ko'pincha naqshlarning ko'rinish holati, buyumlarning shakli uning ramziy ifodasini belgilaydi. Jumladan, me'morchilikda ustunning ko'zaga o'xshash qismi, ko'zagi deb yuritiladi. Ko'zada suv saqlangan. Suvga xalqning e'tiqodi baland bo'lgan. Suv-hayot. Shuning uchun ham ustunning ko'zagi qismi hosildorlik ramzi xisoblangan. Nilufar guli, birinchi navbatda, quyosh ramzi bo'lgan, chunki qadimdan bu gulning holati osmonda quyoshning yo'nalishiga qarab o'zgarib turishi aniqlangan. Uch tanobli bargning yurakka o'xshatib ishlatilishi-zardushtiylikda adabiylik ma'naviyatini bildirgan va shunday ramziy ifoda bilan o'rta asr ornameitikasi dunyosiga kirib kelgan. O'simlik shoxchalarining daraxt ramzi o'rnini bosishi manixey dini simvolikasida ko'zga ko'ringan joyni egallagan. Markaziy Osiyo me'morchiligi devoriy suratlarida, xalq amaliy san'ati buyumlarida daraxt shoxchalari, gullar tasviri ko'p uchraydi. Jumladan, Xovaling gil qutilari devorlarida daraxt shoxchalarini ko'ramiz. Daraxt shoxchasi hayot daraxti ma'nosini, dunyo tomiri va shon-shuhrati novdasi ramzini ifodalagan. Islom dini o'rnatilgandan so'ng daraxt shoxchalari naqshi saodat daraxti, ma'nosini anglatgan. Talxatan bobo maqbara-masjidi interyerining sakkizburchak qismida g'ishtlar archasimon daraxt shoxlariga o'xshatib terilgan. Mazkur naqsh ko'prok XI-XII asrlarga oid maqbaralarda saqlangan. Olimlarning

aytishlariga qaraganda, shoxlari pastga yoyilgan daraxt naqshi - narigi dunyoni, shoxlari yuqoriga qaraganlaritirilish ramzini ifodalagan ekan Guldonlardagi butoq, shoxcha, guldasta tasvirlari esa osmoniy “hayot shajarasining ramzi hisoblangan. Lola - tabiatning uygʻonish ramzini ifodalagan. Buxoro turar joy ichki devorlarida, guldonlarda butoq tasviri keng qoʻllanilgan. Xalq amaliy - badiiy sanʼati va meʼmorchiligida gul hamda oʻsimliksimon naqshlar bilan bir qatorda, mevalar ham oʻz aksini topgan. Jumladan, I asrga oid bir idishda ayol zulfi va quloqlari oʻrnida barg va novdalari bilan bir boshdan uzum naqshi boʻrtma qilib tushirilgan. Shuningdek, VI-VII asrlarda oid Munchoqtepada ochilgan xona devorlarida odam boshi bilan bir bosh uzum tasviri koʻzga tashlanadi. Uzum tasviri Varaxsha saroyi (V-VII asrlar) devoridagi ganch pannolarda ham uchraydi. Anor esa I-V asrlarga oid goʻr qutilari devorlarida, I-III asrlarga oid anor ushlab turgan hosildorlik xudosi Anaxita haykalchasida mavjud. Anor bilan lola tasviri qadimiy Panjikent devoriy suratlarida, anorgul va anor naqshi XIX-XX asr uy-joy meʼmorchiligida koʻp ishlangan. Anor tasviri oʻrta asrlarga oid kulolchilik buyumlarida ham koʻp uchraydi. Anor ichidagi donachalari (mevasi) - xosildorlik, anor bilan lola tasvirlari tabiatning uygʻonishi, bahor ramzini bildirgan. Umuman olganda, olma - muhabbat, anor, uzum - ezgulik, toʻqchilik, toʻkin-sochinlik ramzi hisoblangan. Markaziy Osiyo xalq amaliy sanʼati buyumlarida, devoriy naqshlarda doira, girix, uchburchak, romb kabi naqshlar keng qoʻllanilgan. Ularda ham ramziy maʼnolar boʻlgan. Jumladan, doira, girih, uchburchak singari shakllar koʻpincha xonadonni, kishini xar xil ins-jinslardan asrovchi ramziy belgi vazifasini oʻtagan. Geometrik naqshlar juda qadim zamonlardan buyon monumental bezakda qoʻllanilib kelingan va har qaysisi oʻziga xos ramziy ifodaga ega boʻlgan. Oltintepadan topilgan ayol xaykalchalarining birida uning pastki qismida atrofi kiprik tuzilishida tik chiziqlar bilan aylantirilgan uchburchak naqshi tasvirlangan. Olimlarning fikricha, mazkur naqsh xudo-ayol ramzini ifodalagan. Samarqand, Yuqori Zarafshon soʻzanalarida koʻp uchraydigan chorchiroq naqshidan qadim zamonlarda zardushtiylik dini aqidalariga binoan muqaddas olovga boʻlgan eʼtiqodning bezakda saqlanib qolganligini bilib olamiz. Shuningdek, mazkur naqsh orqali xalqimizning yorugʻlikka, tantanavorlikka boʻlgan orzu-havaslari ifodalangan.

Markaziy Osiyoda islom dini o'rnatilgandan so'ng ham tirik mavjudotlar tasvirlari obidalarda ishlanganligi guvohi bo'lamiz. Jumladan, Samarqandda Sherdor madrasasi (1636 y.), Buxoroda Nodir Devonbegi madrasasi (1622 y.), Termizda shoxlar saroyi (XII asr), Samarqandning Xo'ja Ahror majmuasidagi madrasada sher tasviri bo'lganligi sababli uni Sherdori Berun (XVII asr) deb atashgan. Bunday misollarni ko'p keltirsak bo'ladi. Olimlarimiz mazkur davrlarga oid tasvirlarda ham janrli sahnalarga bag'ishlangan mavzular bo'lganligini ta'kidlaydilar. Jumladan, "G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel Samarqandda Amir Temur, Hirotda Shoxrux, Isfaxonda Abu Said saroylarida shoh va saroy amaldorlari portretlari, saroy hayoti, ko'ngilxushlik (ov), harbiy yurishlar kabi sahnalar uslub jihatidan Markaziy Osiyoning XV-XVII asrlarga oid miniatyuralari maktablariga xos uslublarda ishlangan, deb ta'kidlaydilar"²

Tasvirlarning aksariyati bir, ikki yoki uch personajlardan tashkil topgan. Me'moriy obidalar peshtoqlarida, xalq amaliy san'ati buyumlarida, xona devorlarida, badiiy matolarda sher va quyosh, bir mavjudotning ikkinchisiga hamla qilish sahnasi, daraxt, tog' echkisi, qo'chqor, grifon, parrandalar, yirtqich xayvonlar surati ishlangan.

"Ularning aksariyati ramziy ifodalarga ega bo'lgan, albatta. Jumladan, sherposbon, qachonlardir iloxiy tushunchaga, so'ng shohona viqorlik ramzi (shohlar taxtida) va yovuzlikdan saqllovchi kuchni ifodalagan"³ Quyosh bilan sher "sheru xurshed" tasvirida quyosh - majoziy tushuncha bo'yicha, yer, ustun va osmonni idora qiladigan va qo'riqlaydigan kuch sifatida, olamning paydo bo'lishi haqidagi afsonalarda esa u olamning o'zgarishida hokimiyatning kuch-qudratini balo-qazolardan saqlash tushunchasini ifodalaydi. Sher, quyosh, ohu tasvirlaridan tuzilgan kompozisiyalar tabiat fasllarining o'zgarishi, Navro'zi olamning kirib kelishi, ekin maydonlarida bahorgi ishlarning boshlanishi ramzini bildirgan. IX-X asrlarda Afrosiyob sopol idishlarida chizilgan sher tasviri o'sha davr diniy falsafiy tizimida katta hurmat qozongan Hazrat Ali ramzini ifodalagan. Darhaqiqat, ko'pgina qo'lyozmalarda Aliga nisbatan "Sheri Xudo" - "Xudo Sheri" iborasi keng ishlatilgan. Shuning uchun ham Rudakiy: "Yuragida sherga nisbatan muhabbati bor kishining bu dunyosi ham, u dunyosi ham obod bo'ladi", - deb

Pugachenkova G.A., Rempel L.I., 1982,144-b.

Rempel L. I., 1987,21-b.

yozgan. Qaqnus qushi - afsonaviy qush. Tasavvuf adabiyotida talqin qilinishicha, bir pirning ruhi ikkinchi bir tarbiya berish yoki bir kuchli ruhning ikkinchi birovda «tajalliy topishi» (jilolanishi) mumkinligi ifodalangan. Xudxud (popushak) - tasavvuf adabiyotida rahnamo pir ramzi bo'lgan. Alisher Navoiyning “ Lisonut-tayr” dostonida yoxud barcha qushlarga raxnamo bo'lib, semurg' degan shoh qushni izlab yo'lga tushadi. Termiz shoxlari saroylari devorlarida sher tanali odam yuziga monand ikki boshli mavjudot tasvirlangan. Bunday qo'shaloq yuzli sher tasvirini B.P.Denike tamg'a, deb hisoblaydi, M.Yusupova uni davlat geroi, deb ta'kidlaydi. Zarafshon tog' voxasida IX-XII asrlarga oid ustunlarning birida tong ramzi sifatida oqshom ramzini ifodalovchi bo'yo'g'li boshi tasvirlari o'yilgan. Kaptar ayol xudo (ma'buda) belgisi hisoblangan, keyinchalik xristian dini ramzi va quyoshni ifodalagan. Shuningdek, omad ramzini bildirgan. Qirg'iy kosmik kuchlarni ifodalagan hamda tamg'alar belgisi sifatida qo'llanilgan. Burgut - qadimdan quyosh ramzi hisoblangan. Shuningdek, kuch va hukmronlik ramzini bildirgan. Umuman, tasvirlar olamida qushlar tabiat shakllaridan uzoqlashib, ko'proq ramziy belgilarni ifodalaydi. Ular bilan narigi dunyo tushunchasi bog'langan. Jumladan, kishi o'lgandan so'ng uning ruhi qush bo'lib uchib ketadi, deb tushunilgan. O'rdak, g'oz, tustovuq, tovus - baxt-omad, go'zallik, olamshumul g'oyalarni, xushxabarlarni yetkazuvchi kuch sifatida gavdalanadi. Ular ilohiy kuchlarni ifodalagan. She'riyatda majoziy, ramziy ifodalarni yoritgan. Ayrim urug'lar qushlarni totemlari deb bilganlar. Jumladan, og'uzlarga mansub kayi, bayot, alkireli, karemlil urug'lari uchun - oq lochin; yazir, dyuker, dudurg'i, yonarlilar uchun - burgut; ovshar, karik, bekdili, karkinlar uchun - quyonni ko'tarayotgan burgut; bayundur, bechene, djaguldur, chepenilar uchun - shunqor tasviri totem hisoblangan.

2.3 Naqshlarning boshqa o'zbek xalq amaliy san'atida qo'llanilishi.

O'zbekiston hududidagi yog'och o'ymakorligi ibtidoiy jamoa davridayoq, yuzaga kelgan. Bular oddiy ishlari bo'lib, ulardan asta-sekin o'ziga xos gul-naqshlar yuzaga kelgan. Salgina o'yib ishlash, chiziqli o'yma, keyin esa yuzaga o'yib ishlashlar ana shular hosilasi bo'lgan. O'yma rasmlar Oqtomdagi muguz taxtachalarda, Quyi Mozordagi suyak taxtachalarda uchraydi (mil.avv. II-I asrlar). Islomgacha bo'lgan vaqtda yog'och o'ymakorligi, asosan, shaklli o'ymakorlik rivojlangan. Maxalliy aholi turli ma'budlarga sig'ingan, ularni yog'ochga o'yib ishlagan, qimmatbaho toshlar qadab bezagan va ularni eshik ustiga o'rnatib, vaqti-vaqti bilan almashtirib turganlar. Sug'd, Xorazm va Ushrushonda arablar kelgunga qadar olov ehromlari bilan bir qatorda butparastlik ehromlari ham bo'lgan (masalan, V-VI asrlardagi Zarafshon vodiysidagi butlar). O'rta Osiyoda yog'och o'ymakorligi ikki yo'nalishda - naqshli va timsolli yo'nalishda rivojlangan bo'lib, goxo ular chatishib ketgan va badiiy teran va falsafiy ma'no yo'g'rilgan murakkab kompozision tuzilmalar yaratilgan. O'ymakorlik bilan ustunlar, eshik kesaklari, eshiklar, darvozalar, yog'och sandiq-javonlar, turmush va mehnat qurollari bezatilgan, shift yoki devorlar ko'rinishida kompozisiyalar bajarilgan. Biroq, nam tuproqli sharoitlarda yog'och ko'pga chidamasdi. Shu bois, eng qadimgi yog'och o'ymakorligi yodgorliklari bizgacha etib kelmagan, ammo ko'mirga aylangan hajmdor haykalchalarning ayrim bo'laklari, eng qadimgi uy devorlari, uylarning xarobalaridagi taxtachalar (masalan, Panjikent kompozisiyalari), dahmalardagi topildiqlar o'tmishdagi xalq, ustalarining yuksak madaniyati va mahoratidan guvohlik beradi. Badiiy yog'och o'ymakorligining o'ziga xos namunalari O'zbekiston janubidagi Yumaloqtepa madaniy qatlami ostidan topilgan (V-VI asrlar). Bu yerda bir yarim ming yil muqaddam boy badiiy yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan katta me'moriy majmua bo'lgan. O'rta Osiyo hududiga arablar bostirib kelgach hamda islom dini joriy etilgach, tasviriy san'atda asta-sekin odamlar va hayvonlar tasvirlari yo'qolib borgan. Bezak rasmlari handasaviy va islami unsurlar asosida tuzilgan. Bunday o'ymakor naqshlarning namunalari, masalan, Shoxi Zinda taxtachalarida, shuningdek, Shayx Sayfiddin Boxarziy daxmasida topilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida badiiy o'ymakorlik yuksak darajada rivojlangan. Samarqanddagi Qusam ibn Abbos

maqbarasining eshik naqshlari bag'oyat jim-jimador va nozik ishlangan. Bunday yodgorliklardagi yog'och o'ymakorligida ustalarning yuksak maxorati bilan birga, ularning badiiy didlari, xalqning hayoti va jannat haqidagi tasavvurlari o'z aksini topgan. Afsuski, yog'och o'ymakorligi nechog'li sifatli ado etilgan bo'lmasin, ularning qadimgi namunalari saqlanib qolmagan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan ko'plab milliy an'analar va urf-odatlar qayta tiklandi, yodgorliklar va me'moriy majmualar barpo etildi. YOG'OCH o'ymakorligi san'atida talay ishlar qilindi, ularda mamlakatda sodir bo'layotgan yangi jarayonlar o'z aksini topdi. 1998 yilda Samarqand viloyatining Xartang qishlog'ida buyuk muhaddis Imom Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriyning 1255 yilligiga me'moriy yodgorlik majmuasi barpo etildi, uning bezak ishlarida "Usto" ijodiy birlashmasining amaliy bezak san'ati ustalari, shu jumladan, yog'och o'ymakorligi ustasi Jaloliddin Asadov ham ishtirok etdilar. Saroy aylanasiidagi ayvonlarning barcha taxta-yog'och ishlari A. Abdullayev rahbarligi ostida olib borildi. Hammasi bo'lib 1000 kub metrli taxta-yog'och ishlari qilindi. Majmua uchun 75 ta o'ymakori ustun va 35 ta eshik yasaldi. Bu yerda birinchi marta allaqachon unutilib ketgan shiftidagi chuqur muqarnas qo'llandi.

Qashqadaryo viloyatining xalq an'anaviy kashtachiligi maxsus tadqiq qilinmagan, shu bois xam O'zbekistan amaliy san'atiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda deyarli yoritilmagan. 2008 yilda ilk bor o'tkazilgan madaniyatshunoslik ekspeditsiyasi materiallari so'nggi 50-60 yilda Qashqadaryo hududidagi an'anaviy kashtachilik holati va rivojining o'ziga xosligini o'rganishga imkon berdi. Qashqadaryo voxasi kashtachiligining hududiy jihatlariga xolisona tavsifni har bir tuman va qishloqlarining an'anaviy hunarmandchiligini bevosita o'rganish asosida amalga oshirish mumkin. Qashqadaryo viloyatining turli tumanlari kashtachiligi haqidagi turkum maqolalarning navbatdagisi -Kosonsoy tumani hunarmandchiligiga bag'ishlangan. Qashqadaryo viloyati hududidagi kashtachilikning rivojlanishi mahalliy aholining tarixiy shakllangan hayot tarsi bilan bog'liqdir. Viloyatning g'arbiy va janubi-g'arbidagi Muborak, Dehqonobod tumanlarida qadimda yashagan ko'chmanchi va chorvador o'zbek kabilalaridan qo'ng'irotlar, shuningdek, turkmanlar, arablar gilam buyumlaridan keng

foydalanganlar. An'anaviy kashtachilikning keng tarqalgan zonalar azaldan Shahrisabz-Kitob maktabiga mansub markaziy va, ayniqsa, shimoli-sharqiy tumanlar hisoblanadi. Shahrisabzning tog' oldi tumanlaridagi Do'ng, Avaz Malik, Shambi, Ovul, Uchuyli, Miroqi, Palandara, Narimonov, Hazrati Bishir va boshqa qishloqlardagi zamonaviy kashtachilik buyumlari nihoyatda qiziqarli va deyarli o'rganilmagan ma'lumotlardir. Hozir esa, Qashqadaryo kashtachiligining kelib chiqishi, unga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganish va uni tiklash loyihalarini rejalashtirishda qadimgi kashtachilikning naqsh va texnologik uslublarining ajoyib an'analari qishloq chevarlari tomonidan davom ettirilayotganligini ta'kidlamochimiz. G'arbiy tumanlarda (Qarshi tumani) kashtachilik buyumlari o'ziga xos tarzda farqlanadi, lekin turlar doirasi cheklangan. Ular, asosan, kichik hajmli so'zana va joynamoz bo'lib, satinga ipak ipda tikilgan. Afsuski, so'nggi yillarda mahalliy aholi ehtiyojlariga ko'ra, to'y liboslari uchun yaltiroq sun'iy matolar ishlatala boshladi, bu didsizlik va qadimiy an'analardan uzoqlashishga olib keldi.

Kosonsoy tumanidagi, asosan, o'zbeklar yashaydigan Oqtepa, Quyi Obron va Jizzalik qishloqlarida gilam va kashta buyumlari ishlab chiqaradigan markazlar o'rganildi.

Oqtepa qishlogida kashta buyumlari deyarli topilmadi, faqat "oyli" to'pbarg kompozitsiyali mo'jaz so'zanalargina qayd qilindi: to'q-qizil rangli satinga islimi naqshlar bilan bezatilgan oy yoki quyosh ramzli bitta katta to'pbarg joylashgan. Uning burchaklarida kichkina to'pbarglar joylashgan. So'zana 1970-71 yillari 17 yoshli Bayna Bekmurodova tomonidan tikilgan. U kashtachilik ommabop bo'lmagan o'zbek qabilasidagi mang'itlar avlodidandir. 1951 yili 18 yoshli Safiya Xayrullayeva tomonidan to'q-ko'k satindan tikilgan so'zanada (1x1,5m) chekkasi shoxsimon novdalar bilan hoshiyalangan (chevar ularni "chinda xayol" deb nomlaydi) 15 ta to'pbarg (uchta to'pbarg vertikal bo'ylab besh marta takrorlangan) joylashgan. Shunisi ajablanarliki, qiz tojik millatiga mansub bo'lishiga qaramay, u tikkan kashtadagi naqshlar ko'chmanchi chorvador kabilalarda mavjud bo'lgan koinot va qutbiy ramzlarga xosdir. Bu to'pbarglarning umumiy chizmasi qo'chqor shoxi ramzli ommaviy Urgut kashtalarining uslubini eslatadi. "Oy", ya'ni oy yoki quyosh motivi, asosan, ko'chmanchi xalq naqshlariga xos, lekin bezakka islimi to'pbarggul naqshining

kiritilishini o'troq va ko'chmanchi xalqlar an'alarining o'zaro uyg'unligi jarayoni natijasi, deb qabul qilish mumkin. Ushbu jarayonda turli xalq va qabilalar madaniyatini birlashtiruvchi va ular tomonidan keng nishonlanadigan navro'z bayrami asosiy rol o'ynagan. Oqtepa qishlog'ida topilgan buyumlarning kashtalanish va tikilish uslublari nuqtai nazaridan shunday xulosa qilish mumkin. Qashqadaryo viloyatining eng g'arbiy zonasi kashtachiligi bir tomondan Samarqand maktabi, boshqa tomondan esa ko'chmanchi qabilasi gilamo'zlik an'analari ta'sirida bo'lgan.

Kashtachilikning eng rivojlangan markazi qatorida Oqtepa qishlog'i bilan yonmayon joylashgan Quyi Obron va Jizzalik qishloqlarini ko'rsatish mumkin. Quyi Obron qishlog'ida (Yuqori qa O'rta Obrov qishloqlari tojik tilida "Obi ranon", ya'ni "Rayon daryo" ma'nosini anglatadi) ko'p miqdorda gilam va kashta buyumlari aniqlangan.

Qishloqning yetakchi chevarlaridan biri Fozila Haqberdiyeva (1942) mang'it qabilasidan bo'lib, 18 yoshidan kashtachilik va gilamdo'zlik bilan shug'ullanadi. Chevar to'rtburchak (1,5x1,5m) to'q-ko'k rangli satinga butum sath bo'ylab shoyi iplardan 12 ta jimjimador to'pbarglar tikilgan so'zanani ko'rsatdi. 1959 yilda tikilgan ushbu so'zananing o'lchami, mato rangi, xususiyati, to'pbarglarning joylashishi Oqtepa so'zanalariga o'xshab ketadi. Naqshlarning nomi xam o'ziga xos, to'pbarglar - *oynusxa*, ichida *olmagul* chekkalarida *obagul* yoki *ova* (suv motivi) - ularning barchasi baxor, navro'z bayrami bilan mazmunan bog'liqdir.

O'qituvchi Marhamat Norqulova (1953) ajoyib naqshu nigorli buyumlar, jumladan, onasi Qizman Baratova (1918) tomonidan taxminan 1930-yillarda tikilgan eski joynamozni ko'rsatdi. Bo'zga "ilma" uslubida bigiz bilan shoyi iplardan nafis osimlik kashtalangan. Joynamozda binafsha, qizil, och-sariq va to'q-yashil rangdagi iplar ishlatilgan bo'lib, ranglar hamohangligi kishini hayratga soladi. Buyum namoz o'qish uchun mo'ljallangan bo'lishiga qaramay, bezagidagi asosiy naqsh *lola-gul*. Odatda navro'z arafasida lola sayli o'tkaziladi. Joynamoz bezagida lola-gul bilan bir qatorda qalampir nusxa, oynusxa, «chinda xayol» usullaridan foydalanilgan. Mehrob ravoqiga arab yozuviga monand naqshlar tikilgan. Umuman, u Qashqadaryo kashtachiligida kam uchraydigan namuma bo'lib, XX asrning birinchi yarmida hududda mavjud xunarmandchilikning ajoyib an'analari bo'lganligidan guvoxlik beradi.

M.Norqulova bundan 40 yil avval opasi Oyshaxar Nuriyeva tikkan ajoyib zoomorfli (qushlar) va buyumli (samovar) ikkita so'zana va bitta joypo'shni ko'rsatdi. 1970 yilda tikilgan so'zana va joypo'sh uchun umumiy xislat shuki, ikkovida ham uchayotgan kokilli kabutar (kaptargul) tasvirlangan. Qip-qizil satindan tikilgan to'rtburchak (2,5x2,5m) so'zanada to'qqizta oq va sariq to'pbarglar joylashgan bo'lib, har bir to'pbarg ichida oq va yashil ranglarda kabutarlarning qanot qoqib turgani kashtalangan. To'pbarglar oralig'idagi ochiq joylarga ham aynan shunday yashil rangli qushlar joylashtirilgan. Qushlar applikativ ko'rinishga ega va qolip nusxa ustidan tikilgan bo'lishi mumkin. Ularning ko'krak qismida besh qirrali to'pbarglar xuddi qirqib olinganga o'xshaydi. So'zanaga nisbatan joypo'sh kichik o'lchamda (1,20x1,40 m), qizil va oq rangli yirik qushlar to'pbargning ichida emas, balki to'q-jigarrang fonda alohida joylashgan. Ular orasiga dumaloq ba'zilar esa uch novdali to'pbarglar tikilgan. Kabutar, shuningdek, baxor, xayot yangilanishining ramzi sifatida qadimdan mahalliy aholi shuurida uyg'onayotgan tabiat tasavvurlarini ifodalaydi. Bu mavzuga taalluqli so'zana bezaklarida, shuningdek, olmagul, gajakgul kabilar mavjud. Chevarlar tili bilan "samovar so'zana" deb atalgan (1971, 1,5x2,5 m) boshqa so'zanada uchragan naqsh o'ziga xos bo'lib, u ko'chmanchi xalqlar san'atida keng tarqalgan "chayongul" bezagini eslatadi. Bunday so'zanalarni Kitob tumani Chirkay qishlog'ida uchratdik (so'zana egasi qo'ng'irot qabilasiga mansub 75 yoshli Xalil Boymirzayev). Shunga o'xshash so'zanalar Qarshi va Shahrisabz muzeylarida ham topildi lekin ulardagi bezak o'simliksimon ko'rinishga ega. O.Bo'riyeva so'zanasida esa "samovar" naqshi tikilganiga shubxa yo'q, chunki uning ichida xonatlas matolarining nusxasidan olov ramzini anglatadigan "atlas nusxa" naqshi kashtalangan. Bu naqshdan qo'shni Muborak tumanidagi gilam to'quvchilari xam unumli foydalanadi. Qushlar mavzusiga kelsak, M.Norqulovaning ta'kidlashicha, so'zanaga bunday kompozisiyani ilk bor uning opasi qo'llagan, zero, bu uslub qo'shni Jizzalik qishlog'iga ham xosdir. Ammo, kashta kompozitsiyasidagi qushlar talqinida o'ziga xos farq mavjud.

Jizzalik qishlog'ida, shuningdek, Samarqand kashtachilik maktabi an'analari ta'siridan guvohlik beruvchi joynamoz va boshqa maishiy jihozlar aniqlandi.

Kosonsoy tumanining uchta qishlog'ida olib borilgan tadqiqotlardan shunday xulosaga kelish mumkin: gilamdo'zlik va kashtachilikda qo'llanilgan bezak-gullar bir-biri bilan uyg'unlashgan, zero, har bir chevar ham kashtachilik, ham gilamdo'zlik bilan shug'ullangan; Kosonsoy mahalliy kashtachiligi an'analari Surxondaryo va Samarqand kashtachilik maktabi uslublari bilan o'ziga xos tarzda bog'lanib ketgan; Kosonsoy kashtasining o'ziga xosligi 1970-80-yillarda zoomorf va buyumli naqshlarni qo'llanishi bilan bog'liq; Kosonsoy so'zana bezagidagi ikki turdagi kompozisiya –to'pbargli va erkin joylashgan bezak-gullar ajralib turadi; gulli-o'simliksimon bezaklarni Kosonsoy kashtasida ifodalanishi uning muhim xususiyatlaridai biri, chunki xalq tafakkurining hayotbaxsh g'oyalari va hayotning yangilanishiga ishonch tuyg'ulari navro'z bayrami ramzida o'zining eng yorqin ifodasini topmoqda.

Hirot XV asrda temuriylar davrida O'rta Sharq san'atining yirik madaniy markazi sifatida mashhur edi. Boysunqur Mirzo tomonidan 1420 yilda tashkil etilgan kutubxona mashhur bo'lib, unda ko'pgina xattotlar, naqqoshalar, musavvirlar ishlashardi. Hirot ustalarining Tabriz, Samaqand, Buxoro miniatyura rangtasviri maktablariga ko'rsatgan ta'siri tarixiy san'atshunoslikda har tomonlama o'z munosib bahosini olgan. Biroq Hirot naqsh kompozisiyalarining tarqalishi dalili kam yoritilgan. Holbuki, Sharqning ko'pgina musulmon mamlakatlari san'atida keng tarqalgan naqsh aynan shu yerda paydo bo'lgan edi. Gap islmiy deb atalgan, gumbazsimon shaklni hosil qilgan, to'p gulbargli, kungurali "hirot" zanjiralari haqida borayapti. Ushbu naqsh ommaviyligi kishini hayratga soladi. Eron (Tabriz XVI asr), Ozarboyjon (Shemaxi, Naxichevan, Qorabog') gilamlarida ham uchraydi. "Hirot" zanjiralari shakllari gilamlarning chekka yoki o'rta qismlarida to'rgulbargli ko'ngirali tarzda solingan bo'lib, asl nusxaga yaqin turadi. Turkmanistonda «beshir», «ersari» kabi gilamlarda «hirot» zanjirasi gilam o'rtasida qo'llanilgan. Ko'pchilik ustalar bu motivning manbasi qayerdan ekanligini bilishmaydi, shu bois o'zlaricha nom berishadi. Ammo ayrim paytlarda gilamlar kompozisiyasi nomlarida «Hirot-pirebedil» degan atamalar uchrab turadi. Ba'zan kompozitsiyalarda zanjirlar unsurlari, masalan qayrilma yaproq, ayrim o'yinlarda baliq tasviri (Eron va Qorabog' gilamlaridagi baliq) kabi qabul qilinadi. Gilamlardagi nafis suratlardan farq qiluvchi o'simliksimon bezak turlaridagi

yangi uslubni tadqiqodchilar XV asrning ikkinchi yarmida Hirotida paydo bo'lgan deb bilishadi. Chunki bu davrda gilamdo'zlikdagi jarayon takomillashgan va miniatyurasi musavvirlar tomonidan yaratilgan kartondagi qoralamalar yordamida tugun uslubida nafis chizmalarni, rasmning mayda unsurlarini berish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Natijada gilam naqshlarida katta burilish ro'y berdi, handasaviy me'yordagi kompozisiyalar o'rniga mavxum naqshinkor shakllarga omuxta bo'lgan real tarzda gul va yaproqlar tasvirlaridan iborat nafis naqshlar paydo bo'ldi. Ilk islamiy naqshlardagi kompozisiyalarda, jumladan «Hirot» zanjiralarini yaratishda Behzod ham ishtirok etgan bo'lsa, ajab emas. Islamiy naqshlar shu qadar mavhumiyashtirilganki, unda biror bir aniq o'simlikni ilg'ash mumkin emas. Yaproqqa o'ralib chirmashib ketgan chizgilar bir me'yorda aylantirilib, yetuk go'zallik haqida tushunchani ifodalaydi va tomoshabinni «ilohiy timsollar» tomon yetaklaydi. Fors, ozorbayjon, turkman gilam va so'zanalaridagi islamiy naqshlarning qiyosiy tahlili oxirgi namunada «Hirot» zanjiralarining tarqalganligini aniqlash imkonini beradi. Huddi mana shu motiv Buxoro, Nurota, Samarqand, Shahrisabz so'zanalaridagi asosiy bezak bo'lib xizmat qilgan, ammo bu o'zbek kashtachiligidagi biror bir tadqiqodda hanuzgacha qayd etilmagan. Aftidan bu xalq chevarlarining ijrosida ma'no jihatdan o'z ahamiyatini yo'qotgan. Sershoxga aylantirilgan yirik to'pbargli, kungirali shakli ko'p saqlanib qolingan. Girihli islamiy shakllari esa kam uchraydi yoxud umuman ko'zga taslanmaydi. Asliyatga yaqinligi aniqlangan so'zana hoshiyalaridagi shakllarining rango-rang muqobil tarzda uchrashi kishini hayratga soladi. So'zanadagi tasvirlar ma'nosi va kelib chiqishi kam o'rganilgan mavzu; bu muammo bilan shug'ullangan olimlar, asosan, keyinchalik ularning usta chevarlar tomonidan nomlanishiga qarab, buyumlarga o'xshash tomonlarini hisobga olgan holda fikr yuritishadi. "Hirot" zanjiri yaxlit holda qabul qilingan emas. Chevarlar so'zanadagi unsurlarni "handadak guli", "kort-pichoq", "qilichak" tarzda nomlab, shunday tushunishgan. Samarqand chevarlari ishlarida "kordi-osh" - "osh pichog'i" eng sevimli naqshi bo'lib, deyarli barcha kashtalarda uchraydi. Darhaqiqat, "Hirot" zanjiridagi kungirali shakl pichoqni eslatadi. Bu o'simlik unsurining erkin talqinida balo-qazolardan asraydigan jism-mavzuga aylanadi. Bunday taassurotlar natijasi shu darajaga borib yetadiki, turk gilamlari g'arbiy evropa

tadqiqodchilari gilam-joynamozlar cheka hoshiyalaridagi islamiy tasvirni yancharlar shamshiri sifatida talqin etishadi. Ishlab chiqarish yetakchi bo'lgan mintaqalarda o'zbek gilamlari va so'zanalarining o'zaro aloqalari kompozisiya darajasida ko'zga tashlanadi. Ammo qoidaga mos aloqadorlikning biryo'la tarqalganligiga dalolat beruvchi unsurlarda baribir mahalliy an'analarga xos tasvirlarni aks ettiruvchi ijodiy ixtiyoriylik, naqsh yaratishdagi erkinlik aks etadi. So'zana o'zbek xalqi badiiy salohiyatining bitmas-tuganmas ijodiy ifodasidir. So'zana kashtalarida Hirot mavzularining qo'llanilishi Buxoro va Hirot ustalarining ijodiy aloqalari namunasi sifatida guvohlik berib turadi. Miniatyura tadqiqotchilari ta'kidlaganidek, bu xalq va malakali san'atning o'zaro harakatda bo'lganligidandir. Hirot saroy musavvirlari tomonidan yaratilgan "Hirot" mavzusi ko'p sonli naqshli kompozisiyalarining yaratilishiga asos bo'ldi. Uning umri hayratlanarli tarzda boqiy bo'ldiki, mana besh asrki, san'atda aks etib kelmoqda.

Qozog'iston badiiy madaniyati tarixida dastlabki naqsh namunalari sopol buyumlarga tushirilgan egri-bugri, archasimon, to'qima shaklli («archasimon») belgi sifatida paydo bo'lgan. Gorizantal, vertikal, diagonal chiziqli, shuningdek, aylana, yarim aylana, tuxumsimon, kvadrat, romb, uchburchak, burama, xoch ko'rinishidagi geometrik shaklli naqshlar keng tarqalgan. Qadimgi davr kishilari o'zlarining olam tuzilishi to'g'risidagi tushuncha-tasavvurini naqshlar orqali ramzlashtirishgan. Masalan, uchburchak orqali tog'larni, aylana shaklida quyoshni, kvadratda yerni, xochda quyoshning harakatlanishini, spiralda harakat, rivojlanishni ifodalashgan. Shuningdek, o'rtasi ko'ndalangiga chizilgan enli chiziqli, shaxmatsimon, eshkaksimon, bolta, sichqon izi, yulduz, singan shox, bir-biriga tutash g'ildirak, bo'tako'z, umurtqasimon shaklli naqshlar ham qo'llangan. Naqshlar dastlab buyumlarning ko'zga ko'rinmaydigan qismiga - narsalarning ichiga tushirilgan. Bu naqshlarning o'sha paytlarda bezak sifatida qo'llanmaganini bildiradi. Qozoq naqsh san'ati xalqning turli kabilalariga xos ko'p asrlik an'alarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, unda tasviriy san'atga xos xususiyatlar yetakchilik qiladi. U narsa-hodisalarni aniq aks ettirish emas, balki ularning mazmunini shartli-mavhum shaklda gavdalantirish asosida rivojlangan. Naqshlarda narsalarning ko'rinishi to'liq holda ifodalanmagan. Ularda narsalarning eng

muhim qismlari gavdalantirilgan. Naqshlarning yuzaga kelishi kabila, urug', oilaga tegishli narsa-buyumlarga belgi-tamg'a qo'yish zarurati bilan bog'liqdir. Asta-sekinlik bilan ushbu belgi-ramzlar estetik, etnoramziy, ilohiy, diniy ma'nolarni bildiruvchi ifodali naqshlarga aylangan. Naqsh kompozitsiyasidagi asosiy unsurlar ularning o'lchami, ranglarining yorqinligi va markazga nisbatan joylashuviga ko'ra belgilanadi. Ikkinchi darajali unsurlar asosiy unsurlarni to'ldirib, ularning o'rni va ahamiyatini bo'rttirgan holda, narsa-buyumlarning tarkibiga uzviy birlashib ketadi. Qozoq amaliy san'atida ranglar kishida ajib hissiyotlar uyg'otib, unga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydigan bezak obrazini hosil qiladi. Shuning uchun ular nihoyatda sinchkovlik bilan tanlangan. Kishilarning tabiatga qiziqishi orta borgain sari ular unda juda ko'p shakllar va turfa ranglar mavjudligini payqashgan. Tabiat kishilar uchun yangidan-yangi naqsh kompozitsiyalarini yaratish uchun asosiy manbaga aylangan. Qozoqlar ham narsalarning mavjud ko'rinishini xayolan ixchamlashtirish orqali tabiatdagi shakllarni oqilona uslublashtirishga intilishgan. Har bir naqsh motivi, xususan, ulardagi ranglar yechimi xalq ustalarining ijodkorligi natijasidir. Naqshlarning rangi ustalarning xayol-tasavvuri, badiiy didi bilan bog'liq holda tanlangan. Qozoqlar buyumga tushirilgan barcha naqshlar yaqqol ko'rinishi uchun fonga asosiy e'tibor qaratishgan. Geometrik motivlar guruhida uchburchak shaklli naqshlar keng tarqalgan. Azaldan ushbu shaklga kuch-qudratni o'zida jo etgan tumor sifatida qaralgan. Bunday qarash bugungi kungacha ham saqlanib qolgan. Uchburchak shakli ko'z tegishidan saqlaydigan tumor xisoblangan. Bunday tumorlarni hayvonlarning bo'yniga osishgan. Bolalar ham uchburchak tumorni taqib yurishgan. Tumorlarning quyidagi turlari bo'lgan:

Bes tanba - xochsimon, dunyoning to'rt tomonining ramziy ifodasi. Patsiz gilam - *alasha*, enli tasma -*baskur*, shuningdek, yog'och sandiq krovatni bezatishda qo'llanadi. Rangi: qizil yoki qora.

Jilinshek - ilik suyagi; patsiz gilam - *alasha*, kigiz xurjun - *tis-kap*, bezakli tasmalarda qo'llanadi. Qizil, qora, jigarrang, yashil, to'k qizil rangda bo'yaladi. Shuningdek, naqshni bo'rttirib ko'rsatish maqsadida oq fonga qora tusli bezak ishlanadi.

Bolta - bolta. Ushbu motiv bolta shaklida bo'lib, xonadonning osoyishtaligini ifodalaydi. Rangi: qizil, jigarrang, ko'k, qora.

Baldaq ~ qo'ltiqayoq. Bu tayanch ramzi bo'lib, kompozisiyalarda markaziy maydonning xoshiyasida qo'llanadi. Asosan jigarrang, ko'k, yashil va qizil rangda bo'ladi. Ba'zan markaziy maydonni bo'rttirib ko'rsatish maqsadida qo'shimcha tarzda boshqa tusdagi chiziqlar ham o'tkaziladi.

Irek, su - egri-bugri, suv. Kuchli himoya xususiyatiga ega. Qozoqlar unga, shuningdek, ilon, yerosti dunyosi, suv ramzi sifatida ham qarashadi. To'lqinsimon chiziqli, o'ramasimon ba'zan baliq tangachalari ko'rinishidagi turli shakllari mavjud. Gilamdo'zlik, kashtachilikda qo'llanadi. Asosiy ranglari - xavorang, ko'k va binafsharang.

Taraq - taroq; jozibador ko'rishga ega. Enli tasma - baskur, patsiz gilam - *alasha* bezaklarida qo'llaniladi. Asosan sariq, jigarrang, qizil, ko'k, qora tusda bo'ladi.

Qanqa - gavda suyaklari. *Alasha, baskur*, kashtalarni bezashda qo'llanadigan motiv. Asosan sariq, yashil, qizil va qora tusda bo'ladi.

Dongelek - aylana; quyoshning naqshli ramzi. Qozoqlar quyosh nurini olamni yovuz kuchlardan himoya qiluvchi, poklovchi, ezgulikka intilganlarga ko'maklashuvchi, yerga hayot baxsh etuvchi iloxiy manba sifatida tushunishgan. *Tekemet* (uy ichiga tushaladigan namat), *sirmak*, milliy liboslar ushbu shakldagi naqsh bilan bezatilgan. Asosan oq, sariq, qizil, to'q qizil, qora tusda bo'ladi. Qo'chqor shoxi shakli - *muyiz* asosiy badiiy motiv sanaladi. Farovonlik, chorvaning ko'payishi, himoya shu ramz orqali ifodalanadi. *Tekemet, sirmak, alasha* qo'chqor shoxi shakli bilan bezatilgan. Shuningdek, me'moriy inshootlarga ham qo'chqor shoxi qo'yilgan. Rangi: qizil-qizg'ish, sariq, ko'k, yashil va ko'k, jigarrang va qora.

Sinar muyiz ~ yakka shox. Qozoq naqshda keng tarqalgan shakllardan biri bo'lib, *tekemat, sirmak* kabi namat buyumlar yakka shox shaklidagi naqsh bilan bezatilgan. Kompozisiyaning atrofi shunday naqshda hoshiyalangan. Qora va qizil rangdagi yakka shox naqshlar keng tarqalgan.

Siniq muyiz ~ siniq shox; xalq ustalari gilam, *baskur, alasha*, xurjun, bo'yrallarni ushbu motiv bilan bezatishgan. Asosan qizil, to'q, qizil, yashil, jigarrang, qora tusda bo'lgan.

Omirtqa - umurtqa; naqsh kompozisiyasi markazida hamda hoshiyasida turli shakllarda

uchraydi. Ko'k, to'q qizil, qizil, jigarrang va qora tusli naqshlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tishsan iz- sichkon izi; gilam, *korjin* (xurjun), *ayak-kopni* bezatishda qo'llanadi. Ushbu motiv kompozisiyada hoshiya vazifasini bajaradi. Asosan qizil, jigarrang, to'q qizil, qora tusda buladi.

Botago 'z – bo'tako'z; qozoqlar rombni serfarzandlik ramzi deb bilishadi. Ushbu naqsh yovuz kuchlarni qaytaradi, deb xisoblashgan. Kishilar ko'z xam xuddi so'z singari ilohiy qudratga ega bo'lib, ba'zan u xalok ham qiladi, deb ishonishgan. Bo'tako'z naqsh unsuri kompozisiyaning markaziy qismida ham, buyumning hoshiyasida ham qo'llangan. Qizil, jigarrang, qora, ko'k tusli bo'tako'z naqshlar ko'p uchraydi.

It quyriq - itquyruq; kamjixatlik, ezgu niyat hamda ko'z tegishi, suq kirishidan asrovchi xususiyatga ega deyilgan. Shu bois o'tovning eshigi, krovatning sirti, shuningdek, kigizlar ham itquyruq naqshlar bilan bezatilgan. Rangi: jigar rang, to'q qizil, yashil.

Tuye taban - tuyatovon; mol-davlat, chorvaning ko'payishi kabi farovonlikni bildiruvchi ramz, deb qaralgan. Xalq hunarmandchiligi buyumlari, yog'och o'ymakorligi buyumlari, kashta, kigiz buyumlar tuyatovon naqshlar bilan bezatilgan. Asosan jigar rang, to'q qizil, qora rangda bo'ladi.

Yuqoridagi naqsh guruxdari: o'simliksimon, jonzotlarga oid tasvirlar, geometrik va osmon jismlari shaklidagi naqshlarning har biri o'ziga xos ma'noni mujassamlashtirgan. Naqshdagi har bir unsur muayyan ma'noga ega. Kapalaksimon, yaproqsimon nafis naqshlar bilan ustki kiyim-kechaklar, shuningdek, qizlarning ko'ylaklari bezatilgan. O'gil bolalarning kiyimini bezatish uchun esa zoomorf motivlar, nayza, burgut ko'rinishidagi naqshlar qo'llangan. Bosh kiyimi, ustki kiyim, shim uchun muayyan naqsh unsurlaridan foydalanilgan. Masalan, bosh kiyimni bezatish uchun xech qachon tuyatovon, sichqon izi, itquyruq, naqshlaridan foydalanilmagan.



Naqshlarni «o'qish» xalqning boy madaniyatini ochuvchi o'ziga xos umumiy kalit sanaladi. Qozoq naqshlarida rang ramzlari muhim ahamiyatga ega. Buyum fonidagi oq rang, ayniqsa, u chizma ichida bo'lsa oq yo'l, baxt-saodat, adolat ramzi sanaladi. Qizil rang - nur, quvvat chiqaruvchi quyosh, sevgi-muxabbat; qora rang - kuch-qudrat, ulug'vorlik, shuningdek, orzu-xavas, farovonlikni bildiradi. Qozoq naqshlarida qizil va

ko'k rangning birlashuvi serquyosh o'lkaning tabiiy boyliklarini bildirib, kishilarning baxt-saodat, farovonlik to'grisidagi orzularini ifodalaydi (naqshlarda jonzo'tning qayrilgan shoxi - farovonlik va chorvachilik ramzi ifodalandanda ezgulik va boylik iloxasi Tao-tye nazarda tutiladi). Tussiz, xira ranglar qayg'u-alam, g'am-anduh tushkunlik, umidsizlikni bildiradi. Yashil rang zaminning uyg'onishi, bahorning kelishi, yoshlik; ko'k rang osmon, Tangri saltanati; sariq rang esa aql-tafakkur ramzi sanaladi. M. Semyonovning naqsh to'grisidagi quyidagi muloxazalari e'tiborga molik: «O'zining shakli, ko'rinishi jihatidan qo'chqorning burama shoxiga o'xshaydigan naqshlar buyum satxida keng saxnni egallab, kompozitsiyaga maxobatlilik bag'ishlaydi va undagi xar bir unsur tuganmas, bepoyon borliqqa ishora kabi taassurot uyg'otadi. Unda zamon, makon, abadiyat -borliqning ulug'vorligini mujassamlashtiruvchi umumiy kategoriyalar bo'rttirib ifodalangan». Unga qo'shimcha sifatida ta'kidlash joizki, yuqoridagi kategoriyalar aynan naqshlardagi ranglar gammasida ko'rinadi. Yuqorida ta'riflangan rang xususiyatlaridan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, qozoq naqshlarida xar doim birinchi o'rinda qizil rang, ikkinchi o'rinda qora (to'q jigar rang), uchinchi o'rinda oq rang turadi. Keyin esa to'q qizil, sariq, yashil, ko'k, to'q sariq, xavorang kabi ranglar qo'llaniladi. Qozog'istonning neolit va bronza davriga oid sopol buyumlari va petrograflaridagi ranglar yechimi bu o'lkada amalda qizil - qora - oq rangli naqshlardan foydalanilganidan dalolat beradi.

O'zbek milliy kashtado'zlik xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi. Kashtachiligimiz san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek chevar ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpich, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy, shuningdek Respublikamizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki amaliy san'at muzeylarida ko'p namunalari to'planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar

isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlimi, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlari bilan birgalikda rivoj topgan. XIV - XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Ganzalem de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. Kamoliddin Behzod "Zafarnoma"ga ishlagan. "Temur taxtda" miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga e'tibor bersak, unda hind, xitoy, rus, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachiliklarining usullarini uchratamiz. Kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik shakl hamda gul naqshlari ko'p qo'llaniladi. Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari-bo'lajak kelinchak seplari bo'lmish har xil kashtachilik buyumlarini ya'ni dastro'mol, choyxalta, parda, belbog', sumka, nimcha, joynomoz, gulko'rpa, kirpich, zardevor, choyshab, so'zana, kiyim bezaklari va bosh kiyimlarini, sovg'alarni o'zlari tayyorlashgan. To'yda kuyovning qarindosh-urug'lariga kelin o'zi tikkan buyumlarini sovg'a qilgan. To'ydan oldin sep yoyib ko'rgazma qilinar, bu kelinning chevarligini, mehnatsevarligini namoyish etishi va kashta qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa yuqori baholanar edi. Qizlar juda yoshligidan boshlab kashta tikishga o'rgatilib, ular uch, to'rt yildan keyin mustaqil kashta tikishni boshlaganlar. O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada kashta tikish bilan ayollar shug'ullanishgan. O'tmishda bu kashtalar oq va tabiiy malla shoyi, adras, hisoriga, baxmal matolarga tikilgan, keyinchalik satin, shoyi, baxmalga tikiladigan bo'ldi. Ish jarayonida ular o'z mahoratlarini oshirishgan, bir-biridan va kattalardan avlodlar tajribasini o'rganishgan. Xalq badiiy hunarmandchilik mahsulotlari faqat bizning mamlakatimizda emas, balki chet mamlakatlarda ham cheksiz talab qilinadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'sha yerda kashf etishgan. Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach ipak, zar yoki jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan. Kashtachilik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topgan.

XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo'lgan hamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan usmoniy turklar ham ushbu san'atga o'zlarining munosib ulushlarini qo'shganlar. Qrim va Kavkazning qayeridaki Vizantiya madaniyati uzoq vaqt kuchli ta'sir o'tkazgan bo'lsa, o'sha yerda kashtachilik rivojlanavergan. Qadimgi Rus ham Vizantiyaga taqlid qilib kashtachilik san'atini o'rgangan. Rus kashtasi gullarining harakteriga va tikilish usullariga ko'ra juda turli-tumandir. Popok (yo'rma) chokli kashta tikish Olonets, Vologda oblastlari va Arxangelsk oblastining g'arbiy qismida keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda Rossiyada ellikdan ortiq baxyasimon kashtado'zlik korxonalari bor. Ivanovo, Ryazan, Kalinin, Smolensk va boshqa oblastlarda kashtado'zlik markazlari bo'lib, u yerdagi korxonalarda turli kiyimlar va uy ro'zg'orni bezaydigan turli buyumlar ishlab chiqariladi. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Kashtado'zlikning yirik namoyandalaridan Andijondagi "Qizil bayroq" arteli rassom kashtado'zi X.Nazarov, Samarqanddagi "Xotin-qizlar mehnati" arteli kashtado'zi Usmon Shokirov, toshkentlik kashtado'z va chizmakash Xayri Sobirovalar kashta buyumlariga yangi turli xil naqsh kompozitsiya va tikish usullarini yaratdilar. X.Sobirova onasi Zaxira Mirxoliqovadan qo'lda, mashinada tikish sirlarini va chizmachilikni o'rgandi. X. Sobirova 15 yoshidan boshlab onasining kashtado'zlik hunarini davom ettirib, "Sharq guli" va "Ilg'or" nomli Stalin artelida 16 yil ishlab ko'p shogirdlar yetishtirishda o'z hissasini qo'shdi. Yetishib chiqqan kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.



Naqsh- arabcha tasvir gul degan ma'noni anglatadi. Kashtado`zlik san'atida har bir millatning o`ziga xos eng ko`p qo`llaydigan naqshlari bo`ladi. O`zbek kashtalarida o`simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko`p bo`lsa, rus kashtachiligida geometrik, o`simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko`p tasvirlanadi, qozoq va qirg`iz kashtachiligida esa ko`proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi. Rang-tasvir vositalar yordamida ishlangan, nur va soyalar hajmni keltirib chiqaradigan, shu bilan birga o`ylamay-netmay tabiatdan aynan ko`chirishga intilmagan rasmchini naturadan yaqinroq bo`lishi mumkin. Kashta gulini yaratishda naturaga qarab rasmni chizib oladi, keyin uni naqshga va turli naqshdor kompozitsiyaga aylantiriladi. Naqsh bilan amaliy san'at buyumlari bezatiladi, shuning uchun u buyumning ajralmas qismi bo`lib, o`sha buyumning shakliga, vazifasiga va qanday materialdan tikilishiga butunlay bog`liq bo`ladi. Rasmni naqshga aylantirishda uning (guli va hokazo) harakterli belgilari tanlanadi. O`simlik, qush motivlarini aniq ko`rsatishga intilmay, faqat asosiy chiziqlarigina bo`rttirib kontur qilib chiziladi. Biror buyumni tikishdan oldin uning badiiy yechimini o`ylab ko`rish, bezakning undagi ayrim bo`laklarining buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompozitsiya harakteri ko`proq ritmga-naqshdagi alohida elementlarga bog`liq bo`lib, bu kompozitsiyaning ifodali bo`lishiga aniq idrok etilishiga yordam beradi. Kompozitsiya (mujassamot) - lotincha "Kompositio" so`zidan olingan bo`lib, to`qish, tuzish, bir-biriga solishtirish, naqshni g`oyasi, harakteri va vazifasiga, muvofiq uyg'un hamda mutanosib joylashtirish degan ma'noni anglatadi. Ritm-naqsh kompozitsiyasining ma'lum bir qismi ma'lum bir masofada doimiy ravishda bir tekisda takrorlanib kelishi bo`lib, naqshdagi harakatning uzluksiz va go`zal ko`rinishini ta'minlaydi. Simmetriya-grekcha so`zdan olingan bo`lib, o`lchovlarning bir-biriga munosibligi tushuniladi. Bezakning simmetrik tuzilishi. Assimetriya-kompozitsiyada simmetrik qonun-qoidalarining muvozanatini buzilishidir. Stilizatsiya-tabiatdagi o`simlik va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va uzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir. Naqshni tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va hokazolar) dan shuningdek, to`lqinsimon, siniq chiziqlar,

spirallardan, o'simliklar (barglar, shoxlar, daraxtlar) dan, jonivorlar dunyosi (hashoratlar, qushlar, baliqlar, hayvonlar) tasviridan foydalanish mumkin. Naqshda geometrik shakllar bilan tabiatdagi o'simliklar qo'shilgan bo'ladi. Kashta bezaklariga simmetrik, ya'ni asosiy chiziqlar, shakllar, ranglarning gorizontal yoki vertikal simmetriya o'qiga nisbatan qonuniy joylanishi harakterlidir. Gul bitta, shuningdek, ikkita yoki bir necha simmetriya o'qiga nisbatan tuzilishi mumkin.

Kashtada gul ko'pincha yopiq yuzada, ya'ni qandaydir geometrik shakl bilan chegaralangan yuzada tuziladi. Bu kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak shaklidagi dasturxon, so'zana, palak, zardevor, kirpich, choyshab, belbog', yostiq ustiga yopiladigan jildi, dastro'mol va hokazolar bo'lishi mumkin. Buyum shakliga va kashtado'zning mo'ljaliga qarab kashta gulning shakli va joy o'zgarishi, masalan, dasturxon, dastro'mollarning burchaklariga yoki o'rtasiga kashta tikilishi mumkin. Burchakdagi kashta gullarining tuzilishi har xil bo'ladi. Bezakda bargli va gulli novdalar burchakdan chap va o'ng tomonga yo'nalgan. Hamma bezaklarda aytilgan o'simliklarga o'xshashlik saqlanib, gul va barglari yangi shaklga kiradi. Ularda tabiatda uchraydigan kamchiliklar: burishgan yoki singan barglar, buralgan gulbarglar, singan yoki zichlashgan shoxchalar yo'q. Bunday novdani ko'rish uchun barglarni surib tekislash, ulardan bir qismini uzib tashlash kerak. Rassom ham kashta bezagini yaratishda xuddi shunday qiladi. Gul va barglarning aniq shakllari rassom o'ylaganicha itoat etib, yangicha yo'l yoki yuzani to'ldiradi. Bunday bezaklarda gullar, barglar va mevalar bir-biriga halaqit bermaydi, bir-birini ustiga o'tmaydi. Buyumni bezak elementlari shunday joylashtiriladiki, ular orasidagi bo'sh joylari bir tekisda taqsimlanib, bezakning bir qismi bo'lib qoladi. Kashta uchun xalq orasida tarqalgan bezaklar va rassomlar yaratgan rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Rasmlarning ba'zi qismlarini ixtiyoriy ravishda kompozitsiyalash ham mumkin, lekin tabiatni kuzatib, bezaklarni buyum yuzasiga joylashtirishni ham o'ylab topish yanada qiziqarliroqdir. Kashta tikish rang bilan chambarchas bog'liq. Iplarni tanlashda ranglarning yo'g'onlashuvini, ular bir-biriga qanday ta'sir etishini bilish zarur. O'zaro mos ranglarni tanlashda berk spektr qatori ranglaridan iborat ranglar doirasi asos qilib olinadi. Agar uch qirrali shisha prizmadan nur tarami o'tkazilsa, u tarkibiy qismlarga

bo'linib ko'rinadi, rangli yo'l-spektr hosil bo'ladi. Tabiatda ranglarning bunday qo'shilishini ko'pincha kamalakda, quyosh nuri shudring zarralaridan o'tishida ko'rish mumkin. Ko'zga ko'rinadigan spektr uzluksiz o'zgara boradigan qizil, to'q sariq, sariq, yashil, zangori, ko'k, binafsha ranglar qatoridan iborat. Bu ranglar bir-biridan oraliq tuslar gammasi bilan ajralgan bo'ladi. Agar spektr ranglarini o'sha tartibda doiraga joylashtirilsa, ko'k- binafsha va qizil ranglar orasida to'q qizil rang bo'ladi. Ranglar doirasini diametri bo'yicha bir tomonda qizil to'q sariq va sarg'ish-yashil, ikkinchi tomonida zangori-yashil, ko'k, ko'kish-binafsha ranglar qoladigan qilib ikkiga bo'lish mumkin. Doiraning qizg'ish-sariq bo'lagidagi ranglari iliq va ularga qarama-qarshi hamma ranglar turlarini sovuq ranglar deyiladi. Ular ko'kimtir ufq, suv, muz ranglarni eslatadi. Har qanday rang o'zining tusi, och va to'qligi bilan harakterlanadi. Rang tusi- qizil, ko'k, sariq va hokazo- rangdorlik. Rang tusiga qarab bir rangni ikkinchisidan (yashilni ko'kdan, ko'kni zangoridan) farqlanadi. Ochiqlik-oq rangga yaqinlik darajasi. Sirti oq bo'lgan narsalar atrofimizdagi hamma narsalar ichida eng ko'p nur qaytaradigan bo'ladi. Shuning uchun oqqa yaqin (och pushti, och-sariq va boshqa) ranglar eng ochiq (eng yorqin) ranglar bo'ladi. Rangning to'qligini quyuqlik darajasiga, eng ko'p rangdorligiga qarab belgilanadi. Masalan, ko'k rangni bundan ham ortiq ko'kartirib bo'lmasa, u to'q hisoblanadi. Hamma ranglar xromatik va axromatik (xromos, grekchadan rang, a- inkor) ranglarga bo'linadi. Spektrdagi hamma ranglar, shu ranglarning behisob hamma turlari qatori xromatik ranglarga kiradi. Ular tonal deyiladi. Axromatik ranglarga oq, kulrang, qora ranglar kiradi. Bular tusi, turi yo'q ranglar. Axromatik ranglar to'q bo'lmaydi. Ularning rang tusi ham bo'lmay, bir-biridan yorqinligi bilangina farq qiladi. Eng yorqin rang-bu oq rang. Qoraning yorqinligi bo'lmaydi. Spektr doirasining qarama-qarshi tomonida joylashgan ranglar qo'shimcha ranglar deyiladi. Agar qizil rangning o'rtasidan diametr o'tkazilsa, u ranglar doirasidagi qizil rangning taxminan to'g'risidagi zangori-yashil, to'q-sariqqa zangori, sariqqa-ko'k, yashilroq va hokazolar qo'shimcha rang bo'ladi. Agar qo'shimcha ranglar teng miqdorda aralashtirilsa, ular bir-birining rangini o'chirib ochroq, kulrang hosil bo'ladi. Qo'shimcha ranglar yonma-yon qo'yilsa, ular bir-birining rangini to'qnashtiradi. Qo'shimcha sifatida biri asos bo'lib, ikkinchisi qo'shimcha sifatida (bezak uchun)


xizmat qilishi lozim. Har qanday ranglar yonma-yon turganda bir-biriga ta'sir ko'rsatib, turli taassurot qoldirishi mumkin. Har qanday rang to'qroq ranglar orasida ochroq ko'rinadi, och ranglar orasida esa- to'qroq ko'rinadi. Oq bilan qora, qora bilan kulrang oq o'zaro yaxshi moslanadi. Bu ranglar istalgan hamma ranglar bilan uyg'unlashaveradi. To'q ranglar qora yoki oq ranglar bilan, ochroq ranglar esa- turli tusdagi kulranglar bilan yaxshi xillanadi. Rang tanlashda uning yana bir xususiyatini esda tutish kerak. Rang buyumning shaklini yoki katta kichikligini o'zgartirib ko'rsatishi mumkin. Agar qizil va ko'k dog'lar bilan qoplangan yuzaga qaralsa, bunda qizil dog'lar ko'k dog'larga nisbatan yaqinroq bo'lib, aldab ko'rinishi mumkin. Och va iliq ranglar to'q va sovuq ranglarga qaraganda yaqinroq ko'rinadi. Shuning uchun ranglar buyumlarni kattalashgandek, sovuq ranglar esa kichiklashgandek ko'rsatadi. Ranglarning bu xususiyatidan kiyimning ayrim bo'laklarini bo'rttiribroq, turtib turgan joylarini silliqroq qilib ko'rsatish uchun foydalansa bo'ladi. Uzoqdan ko'rinadigan buyumlar kashtasini to'q rangdagi iplar bilan tikiladi. Kashta tikish uchun iplarni tanlash, ular rangini xillash buyumning nimaga mo'ljallanganiga, gulning kattaligi va qanday joylanishiga bog'liq bo'ladi.

Odatda, kashta guliga asosiy o'rin berilib, gazlama rangiga qo'shimcha o'rin beriladi. Shuning uchun gazlama rangi naqsh rangidan ochiq bo'lib ajralib turmasligi kerak. Kashta gulining rangini tanlashni bajarish sanama chok, tekis chok va hokazolarga ham bog'liq bo'ladi. O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan. Shuning uchun har bir oila o'zi uchun buyumlarni o'zi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko'p, masalan, so'zana, kirpich, choyshab, choy xalta, zardevor, palak, gulko'rpa, dorpech, parda, belbog', do'ppi, ko'ylak, dastro'mol, hamyon, joynomoz, sumka, nimcha va boshqalar badiiy did bilan bezatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz. Palak-devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zanadan gullarning yirikligi, zaminining ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakni o'rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar

ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oylik palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palaka tikilgani bizga ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan.


Kashtachilikka o'rganishda naqsh chizish muhim ahamiyatga ega. Naqsh chizishni yaxshi bilmasdan turib, kashtachilikda katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin emas. Har bir xalq amaliy san'at turlarida o'ziga xos tuzilishga, ko'rinishga va mazmuniga ega bo'lgan naqshlar ishlatiladi.

Shu qatori kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar ham o'ziga xos xarakterga ega. Kashtachilikni o'rganishga kirishayotgan har bir kishi naqsh elementlarini chiza olishni o'rganishi kerak. Bu elementlar naqsh ishlarining alifbosi hisoblanadi. Biz o'simliksimon naqsh elementlari barg, gul, marg'ula va tanob, shkufta, bog'lam va sirtmoqlarning turlari, nomlari va ularni chizishni o'rganamiz. Kashtado'z ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, g'uncha, qush va boshqalarning tuzilishini, o'sish qonun-qoidalarini, ko'rinishini sinchiklab o'rganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash uchun har xil elementlarni stillashtirib olganlar. Masalan gulni stillashtirib olar ekan, uning go'zalligini qaysi holatdagi ko'rinishini tasvirlashni izlab topadi. O'simliksimon naqshlar "Islimi gullar" deb ataladi. Islimi gullar o'z navbatida, ikki tomonga ulanadigan ko'rinishda bo'ladi.



O'simliksimon naqsh elementlari.

Band (novda) - naqshlardagi o'simlik va shoxlari bir-biriga mustahkamlanadi. Tanob - arabcha chilvir-arqon degan ma'noni bildiradi. Murakkab naqshlar kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negizi, naqsh shakl beruvchi chiziq tanob deyiladi. Naqqosh naqsh kompozitsiyasini chizishdan oldin birinchi tanob tortib keyin novdalarni chizadi, so'ngra novdalarni yo'nalishiga moslab gullarni joylashtirib chiqadi. Naqsh kompozitsiyasini chizishda tanob birinchi darajali chiziq bo'lib, uning ustidan hech qachon gul, novda yoki barg bosib o'tmaydi. Tanoblar xilma-xil ko'rinishda bo'lishi mumkin. Barg-o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, naqqoshlar tomonidan tabiatdagi o'simlik bargining stillashtirib olingan tasviri. Barg naqsh kompozitsiyasida to'ldiruvchi va xush beruvchi elementdir.



U tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Oddiy barglarga uch barg, bodom barg, tol bargi va boshqalar kiradi. Murakkab barglarga esa ko'p barg, shobarg va boshqalar kiradi. Barglarning quyidagi turlari bor; shobarg eng katta barg, qo'sh barg, ko'p barg, chor barg (to'rtta barg), xurmo bargi, tol, anor, qashqarcha, madohil, qo'shbodom, qalampir, nok, sambit, butoq barg va boshqa 50 dan ortiq turlari mavjud. Gul tabiatdagi gullarning stillashtirib olingan tasviri bo'lib, naqsh kompozitsiyasida to'ldiruvchi va hush beruvchi element hisoblanadi. Gullarning har xil turlari bo'lib, ular o'ziga xos nomlanadi. Masalan; lola gul, chinni gul, savsar, atir, gultojixo'roz va boshqalar. Tuzilishiga ko'ra gullar oddiy va murakkab gullarga bo'linadi: murakkab

gullarga pista gul, ko'pbargli gul va oddiy gullarga lola, oygul, no'xat gul va boshqalar kiradi. Gullar har xil tuzilishiga ega bo'lganligi uchun ularning o'ziga xos ismlari bor. Shukufta-o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, novdalarni bir-biri bilan bog'lash va yuzalarni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Marg'ula-qo'sh chiziqli gajak, o'simliksimon naqsh elementi. Agar bir novdaning ichida ikki marg'ula hosil bo'lgan bo'lsa, u qo'sh marg'ula deb yuritiladi. Agar novda bilan marg'ula tasvirlangan bo'lsa, marg'ulali novda deb yuritiladi. Naqsh kompozitsiyasida marg'ula to'ldiruvchi element hisoblanadi. Bofta-tanob aylanib o'tib hosil qilgan shakl. Islimiy naqsh elementi. Boftalar to'g'ri, egri hamda aralash chiziqlardan tashkil topgan bo'ladi. G'uncha-tabiattagi g'unchalarning usta tomonidan stillashtirib olingan tasviri.

III Bob. O'zbekiston Respublikasining amaliy san'atidagi Samarqand naqqoshlik maktablarida o'qitishning shakl va metodlari.

3.1. Tarjiba-sinov ishlarini olib borishning dastlabki bosqichi.

Ilmiy tadqiqot ishimizming asosiy jihatlaridan biri tajriba-sinov darslarida olib borishdir. Bunga biz bir necha dars ishlanmalarini tayyorlab tajriba-sinov sinfida uni sinab ko'rdik. Nazorat sinfida o'z dasturiy rejasi asosida o'qituvchi olib bordi, o'qituvchi darsining tashkiliy tomonlarini, didaktik materiallarni tayyorladilar. Darslar quyidagicha olib barildi. Dars biz taklif qilgan reja asosida bo'ldi.

Mavzu: Samarqand amaliy san'ati va rivojlanishi. 2 soat ma'ruza, (nazariy dars)

Dars Samarqand shahar 1-son pedagogika kollejida tarjibali o'qituvchi Ya. Norbekova tomonidan olib borildi. U oily ma'lumotli Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining tasviriy san'at va chizmachilik fa'kultetini tamomlagan.

Darsning maqsadi: Samarqand amaliy san'ati, naqshlari va uning rivojlanish tarixi bilan o'quvchilarni tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni estetik, halq an'analarini, milliy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: Amaliy san'at va naqqoshlikka chuqurroq o'rganishda Samarqand naqqoshlik maktabi rivojini yoritish.

Darsning jihozi: Naqsh turlaridan namunalar, Samarqand naqsh elementlari, andozalar, ma'ruza matni va boshqa ko'rsatmali materiallar.

Dars turi: Noan'anaviy (munozara, oz fikri bo'lsin, aqliy hujum va boshqalar)

Darsning texnologik tuzilishi,

1. Tashkiliy qism 3-5 daqiqa.

Bunda sinf o'quvchilari ruhiy tayyorgarligi, darsga qatnashishi, salomlashish, materiallarning etarligi o'rganilib bolalar kayfiyati ko'tariladi, dars mareriallarini o'rganishga imkoniyat paydo qilinadi.

2. Ma'ruzani o'quvchilarning o'zlari tayyorlab kelgan matnlar asosida boshlashga harakat qilinadi. Bunga sinf o'quvchilari 4 ta guruhga ketma-ketlik asosida sanatib bo'lib olinadi. Har 4 ta guruhga nom berilishi ishni yaxshi borishini ta'minlaydi.

3. Guruhlarning sardori va yordamchisi belgilanadi.

Hamma guruh a'zolarining bilimi, kuchi, mashg'ulotga doir qiziqishlari bir hil bo'lishiga erishish kerak edi. Shularni hisobga olib so'rovnoma o'tkazdik.

U quyidagicha edi.

So'rovnoma.

1. Siz amaliy san'at deganda nimani tushunasiz?
2. Naqqoshlik maktablari qaysilar?
3. Mashhur naqqosh rassom-ustalar kimlar?
4. Qanday naqshlar bilan bezatilgan me'morchilik bor?
5. Samarqand naqqoshligi nima?
6. Kamoliddin Behzod kim bo'lgan?
7. Nima uchun Mirak naqqosh deyiladi?
8. Amaliy san'atning qanday turlarini bilasiz?
9. Dizayn ham amaliy san'atga doirmi?
10. Naqqoshlik faniga qiziqasizmi? nima uchun ?

[1-ilova]

Bu savaollarga olingan javoblar asosida biz guruhlarini tashkil etganmiz. Albatta bu savollarga javob darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi. Endi shu kabi savollarga o'quvchilar guruhida qanday tayyorgarlik va javob bo'ladi dars davomida o'rganamiz.

Guruhlarini ko'p hollarda fanga oid terminlar bilan ham nomlanadi. Masalan: Atirgul; Islimiy; Grih; Atribut; Bobta; Ritm; doira va xakozo bo'lishi mumkin.

Biz 4 guruhni "Islimiy", "Grih", "Ritm", "Bobta" deb nomladik bu so'zlarni eslab qolishi uchun yana bir imkoniyat bo'ladi.

Har bir guruhga a'zo bo'lganlar biz tuzgan savollar bo'yicha ma'ruzasi bilan qatnashadi va bir-birining fikrini guruh a'zolari to'ldirib boradi. Har birda aniq vaqtga amal qilinsa natijali bo'ladi.

1. "Islimiy" guruhi Samarqand amaliy san'ati haqidagi ma'ruzasini 1-savoliga ma'ruzasini o'qiydi.

O'zbek xalqining qarovsiz yotgan madaniyat durdonalari, tarixiy yodgorliklarini saqlash va madaniy merosini to'plashni davlatimiz o'z zimmasiga oldi. Madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyati tuzildi. 1918 yili 5 dekabrda qadimiy arxitektura

yodgorliklarini va san'at asarlarini xisobga olish va saqlash haqida dekret chiqarildi. Naqqosh ustalar ham boshqa ustalar qatori machit, madrasa, turar joylarni, saroylarni ta'mirlashni boshlab yubordilar. 30-yillardan so'ng ko'pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat uylari, saroylarni va boshqa joylarni yog'och naqsh va ganch bilan bezatila boshlandi. 1938 yili Moskvadagi Butunittifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasidagi O'zbekistan restorani va pavilonlarini bezashga naqqoshlarni safarbar qilindi. U yerda ajoyib namoyonlar, qandillar, o'yma eshiklar, o'yma ganchlar va naqshlar bilan bezatildi. 1939 yilda Samarqand va Buxoroning eng yaxshi ustalaridan 12 kishi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi binosini ajoyib naqshlar bilan bezadilar. Shu yillari «Baxor» kontsert zalini ham naqsh, ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. 40-yillarda qurilgan Muqimiy, Navoiy teatri binolari ajoyib naqsh, ganch va yog'och o'ymakorliklari bilan bezatildi. Naqqoshlik san'atini rivojlantirishda ajoyib xalq ustalari Farg'onalik Saidmaxmud Norquziyev, Toshkentlik To'xtaxo'jayev, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov. Jalil Xakimov, Xivalik Abdulla Boltayev, S. Xudoyberganov, X. Raximov, Samarqandlik Jalol va Bolta Jalilovlar, usta Madaminjon Xusanov va boshqalar hamda ularning shogirdlari yaratgan asarlar hozir ham xalqqa xizmat qilyapti. Ular avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan naqqoshlik san'atiga katta xissa qo'shdilar. Ular o'zbek naqshlarining elementlariga yangicha elementlar (o'roq va bolta, kabutar, paxta, yulduz va boshqalar) yangicha g'oyalar kiritdilar. Lekin o'zimizning an'anaviy o'zbek xalqining o'ziga xos milliy san'atini saqlab qoldilar. Ular zamonaviy binolarga moslab o'zbek milliy naqsh elementlari bo'lmish nozik majnuntol nixollari, anor bo'togi, guli butalar va boshqa o'simliklarni tasvirladilar. XX asrning urtalarida naqqoshlik san'ati yanada rivoj topdi. Devorlarga manzarali monumental tasvirning mashxur ustasi Chingiz Axmarov Sharq miniatyurasining eng yaxshi namunalaridan hamda O'rta Osiyo xalqlarining badiiy merosidan ilxomlanib ajoyib devoriy rasmlar yaratdi. O'zbek xalqi ikki ming yil davomida xalq amaliy san'atining shunday ajoyib namunalarini yaratdi va yaratib kelmoqda. Naqqoshlar o'zlarining yuksak badiiy maxorati va nazokati bilan bugungi kunda ham kishilarni xayratga solmoqdalar.

2. “Grih” guruhi Samarqand amaliy san’ati haqidagi ma’ruzasini 1-savoliga ma’ruzasini o’qiydi.

Naqqoshlik san’ati O’rta Osiyoda juda qadimiy bo’lishi bilan birga, ajib, o’ziga xos, betakror namunalari bilan ajralib turadi. Har bir naqshning tashqi ko’rinishini ifodalovchi ajib bir gullari, yaproq, novda, islami, girixi kabilar bilan birga chuqur ichki ma’nosi bor. Bunda har bir shakl aniq o’lchamda, hamohang bo’lishi, ranglar did bilan o’zaro mutanosib tanlanishi kerak. Ma’lumki, O’rta Osiyoga islom dinini kirib kelishi bilan joriy etilgan jonli mavjudot tasvirini ishlashning ma’n qilinishi tasviriy san’atni rangtasvir, haykaltaroshlik kabi turlarini rivojlanishiga to’sqinlik qilgan, biroq, xalq amaliy san’ati, xususan naqqoshlik san’ati keng taraqqiy etishiga ham katta turtki bo’lgan. Binolar, turli idish-tovoqlar, buyumlar, qurol-aslahalar naqsh bilan bezatildi. Shaharlar husniga ko’rk bo’lgan qadimiy obidalar, masjid- madrasalar, xonoqo va maqbaralar naqsh bilan bezatildi, ganch va yog’och o’ymakorligi keng ko’lamda qo’llanildi. Ana shunday milliy san’atimiz bo’lgan xalq amaliy san’atining bizgacha etib kelishi va rivojlanishida mashhur ustalar Usta Shirin Murodov, Yusufali Musaev, Umrzoq Ahmedov, Ota Polvonovlarning hissalarini beqiyosdir. Farg’ona naqqoshlik maktabi nomi bilan tilga olinadigan Xo’jand, Marg’ilon, Qo’qon, Farg’ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublarda ijod qilgan ustazoda Saidaxmad Norqo’zievni ham alohida ta’kidlash joizdir. Bugungi kun yoshlari ularning ishlarini sadoqat, ixlos, mehr-muhabbat bilan o’rganmoqdalar. Bu yo’lda ularga bajonidil ustozlik qilib kelayotgan Namangan naqqoshlik maktabini asoschilaridan biri xalq ustasi Asqarali Akbarovdir. Asqarali Akbarov 1951 yili Qirg’izistonning Yangiyo’l tumanida Qutchu avulida tavallud topgan. Shahidlar mozori tabarruk Safed Bulondan 20-25 chaqirim masofada, tog’lar orasida joylashgan bu xushmanzara maskanga Asqarbekning ota avlodi 1917 yildagi o’zgarishlardan keyingi alg’ov-dalg’ov yillari borib qolishgan. Aslida esa bo’lg’usi xalq ustasining ota jihat avlodlari Yangiqo’rg’on tumanidagi Iskovot qishlog’idan, ona taraf qarindoshlari Namangan shahrining Langar Buvasida istiqomat qilganlar. O’rta Osiyo naqqoshlik san’ati qadimdan dunyoga mashhur. O’tmishda ota-

bobolarimiz ko'rgan muxtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yuqotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni xayratga solib kelmoqda. Milliy naqshlarimiz g'oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg'u asboblari, uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni xayratga soladi, uni o'ylantiradi. Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan holda takomillashib bordi.

3. "Ritm" guruhi Samarqand amaliy san'ati haqidagi ma'ruzasini 1-savoliga ma'ruzasini o'qiydi.

Naqsh — arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush, xayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, inkurustasiya, panjaralar va hokazolarda xar xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o'yib, chizib, chok yordamida, zarb bilan, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik san'ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiydir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqdi hamda rivojlandi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, naqqoshlik jaxondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma'lum bo'ldi. Chunonchi, Xitoyda, qadimiy Eronda, Hindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko'rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitiga geografik o'rniga, o'lkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va har xil hayvonlar, qirgiz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o'zbek xalqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'rasiz. Yevropada barokko, gotika, roman, klassisizm uslublari har xil davrlarda hukmron bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan naqqoshlik san'atining rivojlanishiga ta'sir etdi. O'zbekistan territoriyasidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, Sug'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum. Olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I—II asr), Dalvarzintepa (I asr)

budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berganlar. Xorazmdagi Tuproqqal'a zallari monumenttal naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI—VII asrlarda ibodatxonalar. Qasrlar va boylarning uylari o'yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo'ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqsh, rasmlarni ko'rib xayron bo'ladi kishi. Ularning birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov, rasmlar urishi, manzaralar hamda diniy rasmlar tasvirlangan. Jonli maxluqlar qizil va ko'k ranglar bilan bo'yab tasvirlangan. VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida O'rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o'zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi, yangi din hamda yangi g'oya O'rta Osiyo tasviriy san'atiga ta'sirini o'tkazdi. Jonli mavjudotlarni aks etdirish man etildi. «Keyinchalik yuzaga kelgan diniy sharxlar va xodisalar ko'proq murosasiz yo'l tuta borib, qat'iy ravishda shunday der edi; «Tangri yoki odamzod suvratini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning rasmini soling, aks holda bu qoidani buzgan kishi gunoxi azim qilgan bo'ladi», deb qo'rqitilgan. Jonli mavjudotlar suvratini chizish man etilishinmng ma'nosi shundaki, xudodan boshqa xech kim biror narsa yaratish u yoqda tursin, xatto Xudo yaratgan narsani qayta gavdalantirishi ham mumkin emas va bu uning qo'lidan kelmaydi, aks xolda musavvir Xudo bilan bas boylashib, uning irodasiga shak keltirgan bo'ladi». Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yuqolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi, Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi. Xullas tasviriy san'at rivojlanmaydi. Buning hisobiga xalq Amaliy bezak san'ati naqqoshlik xisobiga rivoj topdi. IX—X asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g'isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoklar ganch-naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duo-afsunlar, tasbiq va boshqalar naqadar mo'lligini ko'ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo'layotgan voqeliklar, tilaklarni aks ettirgan. Har bir chizilgan naqshda

o'ziga xos ma'no bo'lgan. Chunonchi, o'simliksimon naqsh gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, «pechak islamiy» naqshi boylik va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda bahor chog'ida uyg'onishni bildiradi.

4. “Bobta” guruhi Samarqand amaliy san'ati haqidagi ma'ruzasini 1-savoliga ma'ruzasini o'qiydi.

Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo'lgan muxabbatini bildiradi. Uning rantlari xos ma'no va harakterga ega. Naqsh o'zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroq bo'lib kelgan. Eng oddiy prinsiplari bir-biriga mutanosiblik, uyg'unlik, yusin va usullarini ajoyib qayta-qayta takrorlashuvidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e'tibor berib, uning tabiiyligini yuqotmaganlar, har bir element ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir naqsh negizida ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. XI—XII asrlarda O'zbekistan territoriyasida arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan. (XVI), Samarqanddagi Tillakori madrasasi (XVII asr) va boshqalar bezaldi.

Bu arxitektura binolarida bezalgan naqshlar o'zining badiiyligi, harakatchanligi, o'ziga xos originalligi bilan kishini xayratga soladi. Naqshlarning har biri bir katta asar bo'lib voqelikni naqqosh tili bilan qo'yilayotgandek tuyuladi.

Lekin XVII asrning oxiriga kelib, bir necha joyda takrorlanadigan naqshlar va mavzularning bir xilligi, tillaning xaddan tashqari sarf etilganligi ko'zga tashlandi.

Ayniqsa bu soxada ijodiy izlanishlar kam bo'lganligi sezildi. XVI—XVIII asrlar orasida o'zaro ichki urushlar va nizolar madaniyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir etdi. Bu esa milliy naqqoshchilik san'atining rivojlanishiga ham ta'sir etdi. Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari vujudga kelishi bilan san'atkorlar bu shaxarlarga yig'ila boshladi. Shu vaqtdan naqqoshlik xalq amaliy san'at turlari kabi gullab yashnay boshladi. Xivadagi Tosh xovli, Qo'qondagi Xudoyorxon urdasi Buxorodagi Sitorai Moxi-xosa singari yirik binolar ajoyib naqshlar bilan bezatildi. Hajmli — planli naqsh kompozisiyalar paydo bo'ldi. Bu bezaklar nixoyatda nafisligi bilan ajralib turar edi. Naqsh san'atining rang-barang rivojlanishi, har bir shahar va vohaning o'ziga yarasha naqqoshlik maktabi paydo bo'ldi. Chunonchi Farg'ona, Toshkent, Xorazm, Samarqand va boshqalar. Ular o'zining kompozisiyalari, rangi jihatidan va boshqa tomonlari bilan

farqlanadi. XIX - XX asr boshlarida turar joy binolari, maxalla machitlari, saroy va o'quv yurtlari binolari, choyxonalarning devor va shiftlari jimjimador naqshlar bilan bezatildi. Ayniqsa devorlar sirtiga daraxtlar, guldastalar, guldonli guldastalar, gulli bo'toqlar jonli chiziqlar bilan bezatildi. Chunonchi Quvadagi Zayniddin boyning uyi, Toshkentdagi knyaz N. K. Romanovlar saroyi, A. A. Polovsevning uyi, Marg'ilondagi Saidaxmadxo'ja madrasasi va boshqalar.

Xiva, Qo'qon, Buxoro xonliklari davrida xalq amaliy san'ati ustalari shu shaharlarga yig'ila boshladilar. XIX asr arxitektura yodgorliklarni kuzatsak, ular bir xil uslubda yaratilganligini ko'ramiz. Chunki o'sha vaqtlari naqqoshlar ish axtarib boshqa shaharlarga borar edilar yoki buyurtma bo'yicha boshqa shaharlarga borib binolarni bezatar edilar. Ko'pincha Farg'ona va Buxoro naqqoshlari Samarqandga, Qo'qon, Marg'ilon ustalari Toshkentga kelib ko'pgina binolarni bezar edilar. Bu esa naqqoshlik maktablarining yanada rivojlanishiga o'ziga xos kompozisiyalarning yaratilishiga, ranglar majmuasini yanada boyitishda juda katta rol o'ynadi. Lekin bu naqshlar bir-biriga o'xshasa-da har bir shahar va har bir ustaning o'ziga xos rang majmuasi, kolorita, uslubi, kompozisiyasi jihatidan farq qiladi. Agar biz XX asr orasida yaratilgan ishlangan naqshlarni kuzatsak, har bir rayon va viloyatning o'ziga xos naqqoshlik maktablari yaratilganligini ko'ramiz.

Samarqand naqshlari Toshkent, Farg'ona naqshlariga o'xshab ketadi. Samarqand naqshlari o'ta guldorligi barg va gullarining badiiy xarakatchanligi, jonliligi bilan farq qiladi. Unda murakkab girixlar, Farg'ona naqshlariga o'simliksimon naqshlari bilan aniq bir ritmik takrorlanuvchan naqshlar kompozisiyasi bilan Toshkent naqshlariga o'xshash. Avval zangori rang gammasida ko'p naqsh bajarilgan bo'lsa. Hozir esa yashil rang gammasida ko'proq naqshlar bajariladi. Samarqand naqqoshlik maktabini yaratishda «Usta Raxmonxol, usta Jamoliddin (Mirjamol), usta Maxmud, usta Abdujabbor, usta Abduzoxid, usta Sharif, usta Aminjon, usta Bako» keyinchalik usta Jalol va Bolta Jalilovlar kabi naqqoshlar asos soldilar va bebaxo xissalarini qo'shdilar.

Muxammad Murod Samarqandiy 1616 yilda Buxoroda bo'lgan. U Sa'diyning «Buston» asariga miniatyura chizgan. So'ng bu asar Juybor shayxlaridan Abduraxim Xo'jaga tuxfa qilingan. O'rta asr o'zbek miniatyura san'atining yana bir ko'zga

ko'ringan taniqli musavviri Muxammad Murod Samarqandiy o'zining g'oyat kuchli tasviriy qobiliyati, asarlarni jonli, ifodali realligi bilan ajralib turadi. «Shoxnoma» asarida uning 115 illyustrasiya miniatyurasi uning o'z davrining yetuk san'atkori ekanligidan dalolat beradi. U g'oyat kuchli dramatik syujetlarni o'z asarlarida ifoda etadi. Asarlarida o'z davrining sosial hayoti to'la-qonli ifoda etib berilgan. Uning «qo'zg'olon» asarini kuzatar ekanmiz asar qaxramonlarini g'oyat aniq tashvishli, g'azabkor va jonli ifoda etganligini kuzatamiz. Asardagi ranglar ham o'ziga xos qo'zg'qlish ruhida beriladi. Murodni rang tanlashi ham o'zidan avvalgi musavvirlardan boshqacharoq kompozisiya syujetlari va ularga tanlangan ranglarda aloxidalik reallik xukm suradi.

“Ritm” guruhinig vakili, a'zosi Hakimova Gulbahor “Mashhur naqqosh rassom-ustalar kimlar?” degan savolga quydagicha javob berdi.

Murod Samarqandiy - mashhur naqqosh va mashhur atoqli musavvir. Murod Samarqandiy XVI asrda yashab ijod etgan rassom. Murod Samarqandiyning otasining ismi haqida ham xech qayerda xech nima berilmagan. Murod Samarqandiyni ayrim sharqshunos olimlar uni tug'ilgan va vafot etgan yilini aniq ko'rsatib bermaganlar. Murod Samarqandiy juda yoshligidanoq rasm chizishga kirishadi. U rasm chizishni eng oddiy elementlarini katta zexn bilan o'rganadi. Yosh Murod tabiat elementlaridan o'z rasmlari kompozisiyasida foydalanishga, badiiy asarlar syujeti bo'yicha rasm ishlashga asosiy e'tiborni qaratadi. U birgina rasm chizib qolmay badiiy asarlarni ham mutoala qilib turar edi.

Ko'pgina manbalarda ko'rsatilishicha u davrda Xirotda Alisher Navoiy boshchiligida 40 a'zoga ega bo'lgan yetuk rassomlar xattotlar, me'morlar, musiqashunoslardan tashkil topgan «Ilmiy kengash» faoliyat ko'rsatar edi. Shu bilan birga Mirak Naqqosh rahbarligida «Nigoriston» san'at akademiyasi xam bu davr san'ati va madaniyati rivojida muhim o'rin tutgan xolda Murod Samarqandiy ijodining ravnaqida xam katta ta'siri bo'lganligini ham aytib o'tishimiz joizdir.

U Xusayn Boyqaro xamda Oqa Mirakdan ta'lim olgan. Uning Xirotda yashagan choqidagi asarlari bizgacha yetib kelmagan. XVI asr 30-40 yillarida chizgan suratlarida 30 yaqini kashf etilgan. U hamma miniatyurachilar kabi shoir va buyuk mutafakkir

Alisher Navoiy suratini ham chizgan. Mir Alisher Navoiy chehrasi to'g'ri tasvir etilgan bo'lib chiqadi. Chunki Murod Samarqandiy ham Bexzod singari shoir mir Alisher Navoiy bilan birga bo'lgan. Mazkur surat 1931 yili Londonda tashkil etilgan Eron san'ati ko'rgazmasida namoyish etilgan edi. Xozir Texronda shoxanshox kutubxonasida saqlanadi. Biz Mir Alisher Navoiy suratini ko'zdan kechirar ekanmiz, u usta san'at egasi tomonidan chizilganligiga shubxa qilmaydi. U shoirning yuksak choqlarini tasvirlab, chexrasi ancha manodor chizilganligini aniq namoyon etib turibdi. Uning ko'zlari risolidek, kimnidir diqqat bilan, bor fikri zikri bilan tinglayotgandek tuyulardi. Surat yuqorisida «Sur'atiy Amiri Kabir Mir Alisher» degan yozuv bor.

“Grih” guruhining a'zosi Jo'raeva Nigina esa yuqoridagi savolga quyidagicha mulohaza yuritdi. O'zbekiston amaliy bezak san'atini rivojlanishininig hozirgi bosqichida sintetik jarayonlar ya'ni an'analarni integrasiyalashuvi kuzatilib, bir maktabning badiiy an'alaridan ikkinchi maktabda qo'llanishlishi kuzatilayotgan bo'lsada, berilayotgan o'quv materiallari — pedagogik informasiyalarni ma'lum ma'noda ilmiy asoslangan tarzda bayon etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Misol uchun, Farg'ona va Toshkent naqsh maktablarida Xiva naqsh maktabiga nisbatan umumiylik ko'proq shakllangan. Shuning uchun ham Farg'ona maktabini Xiva maktabiga oid ma'lumotlar bilan boyitish muhim ta'limiy va tarbiyaviy samara beradi. Zero bu muayyan darajadagi murakkabliklar zahirida ta'lim mazmunini boyitadi. Amaliy san'at tarixini tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda badiiy naqqoshlikka nisbatan ganch o'ymakorligida integrasion jarayonlar XX asrning 20 — 40 yillarida qo'llanila boshlangan. Bunga O'zbekistan san'ati va madaniyati tarixidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Misol uchun, 1943 yilda qurilgan Alisher Navoiy nomidagi opera va balet Katta teatrida naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligining o'ziga xos tomonlari o'zining bor tarovati bilan ko'rsatilgan bo'lsada, ustalarning ijodiy hamkorligi umumiylikka ham keng yo'l ochib berdi. Shu muhitda ijodiy mehnat qilganlar davrasida Xiva naqqoshlik maktabining yorqin vakillaridan biri Abdulla Boltayev ham o'z o'rniga ega bo'lgan xalq ustasi sifatida e'tirof etiladi. A.Boltayev 1943 yilda bu ulkan san'at koshonasining qurilishiga taklif qilingan O.Polvonov, Usta

Shirin Murodov kabi xalq ustalari, Shchusevdek dunyoga dong'i ketgan me'mor san'atkorlar bilan ijodiy hamkorlik qildi.

Teatrning "Xiva" zaliga kirarkansiz, Abdulla Boltayev ishlagan sirli naqshlarni, eshiklarga o'yilgan anvoyi gullarni ko'rib ustaning hunariga, san'atiga taxsinlar aytasiz. Bu gullar shunday bejirim, rang-barang ishlanganki, ularning biri ikkinchisida sira takrorlanmaydi. Xiva naqqoshligiga xos shox poya (tanob, raftar), barg, gul va g'unchalariga o'xshash aylanma islimiy naqshlarni Abdulla Boltayev zo'r mahorat bilan chizgan. Teatrning "Xiva" zaliga ishlangan naqshlarning kompozision yechimi mukammalligi bilan ajralib turadi. Usta qo'li bilan yaratilgan ajoyib, serjilo naqshlar o'zining nafisligi bilan qalbingizda o'ynoqi, iliq tuyg'ular uyg'otadi. Usta naqqosh "Xiva" zalini bezash bilan cheklanib qolmasdan, shu teatrdan ishlayotgan Buxoro, Farg'ona, Toshkent, Samarqand bezakchi-ustalariga naqsh kompozisiyalari eskizini chizib bergan. Teatr binosining naqshinkor eshiklari va o'yma detallari bevosita uning ishtirokida bezatilgan. Abdulla Boltayev boshchiligidagi Xiva ustalari Toshkendaga Muqimiy nomli teatr binosini bezashda ham o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar. Bu ijodiy ishi va naqqoshlik san'ati soxasidagi samarali xizmatlari uchun Abdulla Boltayev 1948 — 1954 yillarda bir qancha Davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan. A.Boltayevning badiiy-ijodiy merosidan oliy va o'rta-maxsus, umumiy o'rta ta'lim hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi amaliy san'at to'garaklarida foydalanish o'quvchi-yoshlarni badiiy-estetik tarbiyalashni metodik jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Abdulla Boltayev iste'dodli shoirlar she'rlarini ganchlarga singdira olgan va bu uslublarni juda ko'plab shogirdlariga o'rgatgan. Ularga "Panj gul", "Gul istimi", "Sham grey", "Olma gul", "Turuj islim", "Nor gul" kabi o'n bir xil gullar naqshini yog'och, marmar, ganchga o'yib, ishlash sirlarini o'rgatgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, usta faqat o'zidan oldin yaratilgan an'anaviy naqshlarni chizuvchi naqqosh bo'lib qolmasdan, o'z fantaziyasiga tayanib yangi-yangi naqshlar yaratganligini, birinchilardan bo'lib paxta ramzini naqshga tushirganligi haqidagi ma'lumot ham o'quvchi-yoshlarni, ham talabalarni birdek qiziqtirishi tabiiy. Respublikamizda ko'pgina amaliy san'at ustalari Abdulla Boltayev ishlagan naqshlardan foydalanganlar, ularning ba'zi bir joylarinigina ijodiy rivojlantirishga muvaffaq bo'lganlar. Ganch,

yog'och, marmarga ishlangan naqshlardan tashqari misdan ishlangan qumg'on, selabcha, nos shishalarida, mashhur Madraxim Otajonov yaratgan Xiva pichoqlarida A.Boltayev chizmalari bilan ishlangan o'ymalardan foydalanilgan. A.Boltayev chizmalari asosida ishlangan o'yma bezaklar badiiy kulolchilik buyumlari, mis idishlar Moskvadagi Sharq xalqlari san'ati muzeyi, Toshkentdagi O'zbekiston Davlat muzeyi, Madaniyat vazirligi badiiy ko'rgazmalar direksiyasi, Xiva o'lkashunoslik muzeilarida saqlanadi. Ajoyib iste'dod egasi, yirik naqqosh va xattot A.Boltayev 1966 yilda Xiva shahrida vafot etgan. Bugungi kunda Bekjon Davlatov, Bekjon Avazniyozov, Karimbergan Davlatov, Odamboy Bobojonov, Abjon Ahmedov, Xiyitmamat Bog'bekov kabi shogirdlari uning ishini yoshlarga o'rgatish orqali milliy hunar va an'analarimizni davom ettirib kelmoqdalar.

“Islimiy” guruh a'zosi Karimova Gulmira “Siz amaliy san'at deganda nimani tushunasiz?” dagan savolga “Xalq amaliy san'ati tarixdan juda ko'p rivojlanish davrlarini boshidan kechirgan. Lekin mazmun va mohiyat faqat yangi ijodiy ko'rinishlar bilan boyitilgan. Jumladan istiqlol yillarida ham o'ziga xos rivojlanish davri bo'ldi. Xalq ustalari o'z asarlari bilan jahon saxnasiga chiqdilar. Masalan Rishton kulolchilik maktabida 1000 dan ortiq kulollar ijod qilmoqdalar. Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg shahrida qator ko'rgazmalarda qatnashdilar. Shulardan 130 tasi «Hunarmand» xalq ustalari birlashmasining a'zolaridir. Zargarlik san'ati so'ngi o'n yillik mobaynida birmuncha jonlandi. Unutilib borayotgan an'analar tiklana boshladi. Hozirda samarali ijod qilayotgan usta zargarlar qatoriga Dadamuxamedovlar sulolasi, G.Yo'ldasheva R.Muxametshin, M.Nozirxonov, Sh.Nizomov, M. Olimov kabi ustalarni kiritish mumkin. Zamonaviy zargarlik buyumlari-tumorlar, sirg'alardan «Uch ko'zacha», « Oy baldoq », «Qoshqar baldoq» singari buyumlarga zamonaviy shakl berilmoqda. Mustaqillik yillarda O'zbekiston ganchkorlik san'ati azaliy an'alariga suyanan holda rivojlanmoqda. Hozirda ijod qilayotgan ustozlar maxalliy maktablardagi mavjud an'analarni asrab-avaylagan holda ijod qilayotganliklarini alohida ta'kidlab o'tish joyiz. 1990 yillar O'zbekiston yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik san'ati tarixida yangi bosqich bo'ldi. Ushbu maktablarni asosan Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Xiva maktablari tashkil etmoqda. Toshkent xotira maydoni,

Samarqand Imom Buxoriy majmuasi, Oliy majlis binosi, Amir Temur muzeyi binosi, yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlik san'atining yorqin namunasi. Umuman olganda xalq amaliy san'atining barcha turlari mustaqillik yillarida yangidan chiroy ochdi va jilolandi. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi. O‘zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan amaliy san’at turlari bemsil va betakrorligi bilan dunyoga mashxur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritish ekanmiz, O‘zbek amaliy bezak san’atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya’ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvohi bo‘lamiz. O‘lkamiz zaminidagi arxeologik qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlanib, asrlar o‘sha hozirgacha davom etib kelmoqda. Bizgacha ibtidoiy jamoa tuzumida ashyoviy dalillar - mexnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Tuproq ostida qolib ketgan tarixiy yodgorliklar odam va Xayvonlar jasadining qoldiqlari, qor va yerto‘la devorlariga chizilgan surat va bo‘rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o‘rganishning muhim manbai hisoblanadi. Paleolit davrida amaliy-dekorativ san’at namunalari ham keng tarqala boshladi.” deb javob qaytardi.

Biz yuqorida keltirib o‘tgan dars ishlanmasi noan’anaviy ma’ruza darsi bo‘ldi. Albatta buning ta’limiy va tarbiyaviy tamonlari yaxshi natijani ko‘rsatadi.

№	Savollar	O'quvchilar soni	Guruhlar nomi va balli								Olgan ballarni jami
			Islimiy		Grix		Bobta		Ritm		
1	Samarqand amaliy san'ati va uning rivojlanishi	7 nafar	14	15	13	14	10	14	15	15	110
2	Naqqoshlik san'ati tarixida Samarqand maktabining o'rni	7 nafar	13	13	14	13	11	10	14	13	101
3	Amaliy san'atning rivoji va zamonaviyligi	7 nafar	14	12	11	13	12	14	13	15	104
4	Naqsh san'atida ramziy belgilar va ularning tutgan o'rni	7 nafar	13	14	15	11	13	12	10	12	100
	Jami	28 ta	54	54	53	51	46	50	52	55	415

Ma'ruzaga ham ball bo'ladimi deyish mumkin. Bu o'quvchilarni mustaqil ma'ruzaga o'rgatish, qiziqishini oshirish uchun amalga oshirildi. Natijasi juda yaxshi bo'ldi. Noan'anaviy ma'ruzani shunday holda sinab ko'dim. Boshqa ma'ruza darslarga nisbatan ball yuqori bo'ldi.

3.2 O'zbekiston Respublikasi amaliy san'at rivojlanishini Samarqand naqqoshligida o'rganish ishlarini tashkil etilishi va natijalari.

Naqqoshlik san'ati amaliy san'atning asosiy turlaridan biri ekanligini bir necha bor aytib o'tgan edik. Shuning uchun ham naqshlar chizish masalasi biz o'rgangan kollejlarda uzluksiz hamma bosqichda ham olib borilmaydi. Naqqoshlik fani uchun o'quv dasturi ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan 68 soatga mo'ljallangan dastur asosida olib borilmoqda. Unda fan bo'limlari va mavzular nomi berilgan bo'lib u quyidagicha taqsimlangan.

Namunaviy mavzular rejasi.

II-jadval

№	Fanning boʻlimlari va mavzular nomi	Umumiy yuklama va soat							
		Hammasi	Darslar turi boʻyicha soatlar taqsimoti (auditoriya yuklamasi)						Mustaqil ish
			Jami	Nazariy (maʼruza)	Amaliy	Labaratoriya ishi	Seminar	Kusr ishi (loyihasi)	
3 bosqich 6 semestr									
1	Buxoro, Samarqand naqshlari	6	4	4					2

Kollejning naqqoshlik fani dasturida belgilangan Samarqand naqqoshligiga Buxoro bilan birga jami 6 soat 4 soat nazariy, 4 soat amaliy berilgan bo'lib uning 2 soati mustaqil ish tariqasida beriladi. Bu soat albatta Samarqand naqshlarini o'rganish uchun yetarli emas. Bu ham 3 bosqichning 5-6 semestrlarida amaliy san'atida "Buxoro, Samarqand naqshlari" deb yuritiladi. Biz kuzatgan, darslarni tahlil qilib o'rganganlarimiz asosida quyidagicha tajribalar olib bordik.

Buning uchun maxsus amaliy san'atning naqqoshlik faniga oid tajriba-sinov ishlarining dasturi va metodikasi ishlab chiqildi.

Dissertasiyaning tajriba-sinov ishlari maqsadi: kollejlarda Samarqand naqqoshligi misolida amaliy san'atning rivojlanishini o'quvchilar ta'limiy ishlarini o'tkazish, metodikasini ishlab chiqish va sinab ko'rib yaxshi tomonlarini aniqlash bo'ldi.

Kollejlarda naqqoshlikni o'rganish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining vazifalariga shunday muhim jihatlarni belgiladim;

- naqqoshlik san'atining ta'limiy o'rganilishidagi imkoniyatlarni aniqlab olish;
- naqqoshlik fanining amaliy san'atdagi o'rnini aniqlash;
- naqqoshlikning o'qitilishi jarayonini, o'tilishini o'rganib olish;
- naqqoshlik san'atiga oid dars ishlanmalarimizni amalda sinab ko'rish;
- amaliy san'atga oid naqqoshlik san'ati fani Samarqand maktabi misolida o'rganishni takomillashtirish.

Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun biz tajriba-sinov maydonchalari sifatida bir necha kollejlarni jumladan, 1-son Samarqand pedagogika kolleji va milliy hunarmandchilik kasb-hunar kolleji belgiladik. Bu tajriba-sinov ishlarimizda 4 nafar tajribali o'qituvchi va 4 ta o'quvchilar guruhidan 100 nafari qatnashdi. Shu keltirib o'tilgan kollejlardan 2 tadan guruh tanlanib biri nazariy guruhi, biri esa tajriba guruhi bo'ldi. Naqqoshlik haqidagi dars mashg'ulotini nazorat guruhlarida kollej o'qituvchilarining o'zlari olib bordilar. Bular doimiy olib borilayotgan reja asosida bo'ldi.

Biz o'z maqsad va vazifalarimizni belgilanganidek amalga oshirish uchun kerakli materiallarni tayyorlab oldik. Bunda reja, dars ishlanmalarni o'qitishga oid didaktik materiallar, o'quvchilarning naqqoshlikka oid bilimlarini o'rganib, sinash uchun uning mezonlari belgilandi. Shuningdek bir qancha mavzuga oid testlar, so'rovnomalar ham tayyorlandi. Shuning bilan birga kollejdagi biz tajriba qilayotgan o'quvchilar bilimi birinchi bosqichda ham sinab ko'rildi.

Biz bergan materiallar asosida o'qituvchi o'quvchilar naqqoshlik san'ati, rivojlanishi tarixi, Samarqand naqqosh ustalari, tarixiy me'morchilik obidalarining bezakli jihatlarini bilishi ham ko'rib chiqildi. O'quvchilar amaliy san'atining naqsh turiga ekanligi sinaldi. Mana shu masalalar biz o'raginib, tajriba qiladigan ishimizda asos bo'lib hizmat qildi.

Tajriba- sinov ishlarini olib borish uchun tanlab olgan kollejlarda amaliy san'atning naqqoshlik fani o'qitilishi, o'qituvchilarning darslarda qo'llanilayotgan usullari, dars ishlanmalari, darsdan keyingi faoliyatlarning olib borilishi ham aniqlanadi.

Tajriba- sinov ishlari uchun kerakli materiallar tanlashga biz asosan e'tiborimizni quyidagi ikki omilga qaratish lozim deb bildik.

1. Naqqoshlikni o'rganish va undan foydalanishda Samarqand naqqoshlik san'atiga oid asarlarni to'g'ri tanlash, olingan materiallarni tizimlashtirish, foydalanish yo'larining bir necha variantlarini tayyorlab tavsiya etish.
2. Naqqoshlik va amaliy san'atni yaxshi o'zlashtirgan o'qituvchilar Samarqand naqqoshligini ham o'z ish faoliyatida foydalanayotganlaridan ishonch hosil qilish, o'rganish, o'z faoliyatimizda ham undan foydalanish.

Naqqoshlik va amaliy san'at rivojlanishida uni o'rganish, materiallar tanlashda bir qancha quyidagicha narsalarni hisobga ham olish kerak deb o'ylaymiz.

- Amaliy san'atga oid materiallarning estetik ko'rinishi.
- Tanlangan materiallar yuksak badiiy saviyada bo'lishiga erishish.
- Naqsh va amaliy san'at buymlari o'quvchilarning yoshiga, xususiyatlariga mos bo'lishigi.
- Materiallar o'quvchilarning qobiliyatlariga ham to'g'ri kelishi.
- Samarqand naqsh va amaliy san'ati durdonalarini to'g'ri tahliliy ko'rinishlari.

Albatta bunday materiallar o'zbek amaliy san'ati materiallarining hamma jihatida uchraydi. Shuning uchun ulardan foydalanishning bir qancha shakllarida amalga oshirish kerak bo'ladi;

1. Naqqoshlik va amaliy san'at bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirish,
2. O'quvchilarga shu Samarqand naqshlari andozalaridan chizdirish,
3. Naqqoshlik va amaliy san'atga doir referat yoki konspektlar yozdirib borish,
4. Har qanday naqsh chizmalaridan Samarqand naqsh maktablari elementlari, ranglarini farqlashni o'rganish,
5. Naqqosh va amaliy san'at ustalarining ijodi, ishlarini o'rganish.

Shunday shakllarni amalga oshirishda tajriba-sinov rejasiga biz shunday mavzularimizni taklif qilgan edik.

3 bosqich 6-semestrda.

Nazariy 1. Samarqand amaliy san'ati va rivojlanishi. 2 soat

2. Registon ansamblidagi me'moriy obidalardagi naqshlar tahlili. 2 soat.

Amaliy 3. Naqqoshlik san'atida elementlar va simvollar. 2 soat

Bunday berilishiga sabab Samarqand naqshlaridan juda ko'plab ma'no, mazmun topish mumkin.

Pedagogika fanlari doktori, professor S. S. Bulatov kitobida Registondagi "Sherdor" madrasasidagi elementlarni o'qish san'ati xususida gapiradi. Unda shunday ko'rinishlar borligini e'tirof etib uni bilish ilmi juda katta amaliy san'atga foyda keltiradi degan edi. Amaliy san'at falsafasida.

Biz tajrida-sinov ishimizda kollej o'quvchilarini shunday savolnoma bilan so'rov o'tkazdik. Uning natijasi oldiniga shunday bo'ldi.

So'rovnoma.

1. Siz naqqoshlikning rivojini qanday tushunasiz?
2. Naqsh san'ati to'g'risida nima deysiz?
3. Samarqand naqqoshlik maktabi qanday?
4. Amaliy san'at O'zbekistonda qanday rivojlangan?
5. Amaliy va naqqoshlik san'atini siz yaxshi ko'rasizmi?

Mana shu savollarga 100 ga yaqin o'quvchilardan javoblar oldik natijasi quyidagicha bo'ldi.

III-jadval

O'quvchilarning aniqlovchi so'rovnoma bilan berilgan javoblari haqida.

Darajalar	Tajriba-sinov sinflari. 100 o'quvchi		Nazorat sinflari. 100 o'quvchi	
	Tajriba-sinovning boshlanishida	Tajriba-sinovning oxirida	Tajriba-sinovning boshlanishida	Tajriba-sinovning oxirida
Yuqori	21 (21)	31 (31)	20 (20)	26 (26)
O'rta	41 (41)	42 (42)	54 (54)	41 (41)
Past	38 (38)	27 (27)	26 (26)	33 (33)
	100 100%	100 100%	100 100%	100 100%

O'tkazilgan tadqiqotimizning natijalarini tahlil qilar ekanmiz shunday natijalar olindi. O'quvchilarning naqqoshlik va amaliy san'at rivojlanishi o'sishi tajriba qilingan sinfda yuqori ko'rsatkichlar 31% ni, nazorat sinflaridagi bu ko'rsatkich 26%ni tashkil qilganini

ko'rdik. O'z-o'zini ko'rinib turibdi farqi bir-biridan 5% tashkil etmoqda. Bu biz taklif qilgan metodikaning to'g'ri ekanligini ko'rsatib turibdi. Huddi shunday qaraydigan bo'lsak o'rtacha ko'rsatkichlar ham ancha farqlanganini ko'rish mumkin bo'ldi. Past ko'rsatkichlar esa yuqori va o'rta ko'rsatkichlar hisobiga nazorat sinflarida anchaga oshgan. Tajriba-sinov sinflarida bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada kamayganligini ko'rdik. Tajriba-sinov natijalaridan olgan ma'lumotlarimiz asosida ishlarni ijobiy baholash uchun imkoniyat paydo qildi. Bu naqqoshlikga oid mavzuda olib borilgan tajriba-sinov ishlarimiz natijasi yaxshi bo'lganligini hamma ko'rsatkichlarda ko'rdik. O'quvchilar naqsh va Samarqanddagi naqqoshlik rivojlanishi to'g'risida ancha yaxshi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishdilar. O'tkazilgan tadqiqot ishlarimizning natijalariga ko'ra quyidagicha xulosalarga kelishimizga imkon yaratildi.

1. Ikki yil davomida olib borgan tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, kollejlarning tasviriy san'at (amaliy san'at) da o'qiydigan o'quvchilarini naqqoshlik rivoji bilan tanishtirish ularda nafosatni idrok etish, mulohaza yuritdik, amaliy san'atni, naqqoshlik Samarqand maktabi an'analari asosida o'rganishga ko'proq e'tibor berilishi lozim.
2. Amaliy san'atni o'tiladigan kasb-hunar kollejlarda nazariy metodik tadqiqot natijasi ko'rsatilishicha naqqoshlik san'atini o'qitishga etarlicha dars soatlari ajratilgan emas.
3. Amaliy san'atni o'qitish masalasida kasb-hunar kollejlarda darslarga kerakli naqsh namunalari ko'rsatmali materiallar sifatida olib kelib foydalanishi etarli emas. Samarqand naqqoshligiga oid materiallarni darslarda namoyish etib berish maqsadga muvofiqdir.
4. Kollej o'quvchilarini naqqoshlik haqida va amaliy san'at turlari to'grisidagi bilimlarini oshirish zarurati bor. Buning uchun ko'proq amaliy ishlarni bajarish ham lozim bo'ladi.
5. Tadqiqot natijalariga ko'ra bunday ishlarni jonlantirish uchun kollejlarda naqqoshlik to'garaklarini ham tashkil etish va unda o'quvchilarning ijodkorligiga alohida ahamiyat qaratish kerak. Bunday ishlarni yanada yaxshilash yo'llaridan biri uyda mustaqil vazifalarni bajarishga katta e'tibor qaratish lozim. Bular o'quvchilarning tasviriy faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Umumiy xulosa va tavsiyalar.

Amaliy san'at haqida gap borar ekan biz o'rgangan manbalar, kuzatgan va o'tkazilgan darslar, mashg'ulotlarda naqqoshlik san'ati bo'yicha kasb-hunar kolleji o'quvchilarining bilimi, faolligini oshirishni maqsad qilib olgan edik. Shuning samaradorligi o'tilayotgan darslarga bog'liqligi uning asosiy shartlaridan biridir. O'tkaziladigan naqqoshlikka oid darslarning ishlanmalarini tayyorlashda har bir o'qituvchi o'quvchilarning o'rnini, aniq vazifasini belgilab bera olishi, ular mahoratiga bog'liq bo'lgan shartlardan biridir.

-Kollejlarida amaliy san'atga oid o'tkaziladigan mashg'ulotlarning asosiy xususiyatlaridan biri ko'proq darslarning ijodiy mazmunda ekanligi hamdir. Chunki, mazkur fanda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda o'quvchilarning psixologik xotira, ko'rish, eshitish, sezish kabi xususiyatlariga va shu kabi o'quvchilarning qobiliyatlariga ham tayaniladi. Har bir mashg'ulotda mavzularni chuqur anglash va uning ma'nosiga etish doimiy vazifa qilib qo'yiladi.

-Kasb –hunar kollejlarining amaliy san'at darslarida Samarqand naqqoshlik maktabini o'rgatish ko'p vaqt asrlardan buyon davom etib kelayotgan ustoz-shogird an'analari ishini o'rganish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

-O'quvchilarni amaliy san'at bilan tanishtirish, o'rgatish jarayonida Samarqand shahrining me'moriy binolaridagi turli naqshlar, amaliy san'at buyumlaridagi naqsh kompozitsiyalari o'ziga xosdir. Ularni kasb-hunar maktablarida o'rgatish bugungi kunda tarbiyaviy, ma'naviy jihatlardan ham muhim o'rin tutadi. Shuningdek, o'quvchilarning bilimlarini, kasbga qiziqishlarini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

- Amaliy san'atni kasb-hunar kollejlarida o'rgatish bilan doimiy amaliy ishlarini rivojlantirishga ham imkon yaratadi. Chunki, amaliy san'at Samarqand naqqoshligi rivojining ham asosini egallaydi. Samarqand naqshlari, hunarmandlarini ijodini o'rganish masalasi ham keyingi avlodning uni uzluksiz davom ettirishida asosiy makondir.

-Samarqand naqqoshligi uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgani va uning rivojida ko'p usto hunarmandlarning bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham Samarqand

naqqoshlik maktablarining ishini o'rganish ehtiyoji bor bo'lib uni yoshlarga doimo o'qtirib borish kerak.

-San'atga va pedagogika kasb-hunar kollejlarining amaliy san'at yo'nalishlarini o'rganadigan o'quvchilariga Samarqand naqqoshlik maktablari sirlarini o'zlashtirib olishlarida yordam berish kerak. Bunga asosan u bilim maskanlaridagi amaliy san'atga doir fanlarning o'qitilish soatlarini ko'paytirish lozim bo'ladi. Shunda amaliy san'atda naqqoshlik an'analari doimiy davom ettirilib, rivojlanadi.

-Amaliy san'atga ixtisoslashgan o'quv yurtlarida shu naqqoshlikni rivojlantirishga doir tomonlari Samarqand usta naqqoshlari yo'lini, tarixini, element va turli qochirimlarini tadqiq qilish lozim bo'ladi. Bunda ularni chuqur o'rganish, izlanish orqali erishish mumkin. Kollejlarda dars bilangina chegaralanmay turli uchrashuvlar, sayohatlar, kechalar, tadbirlarni ham reja asosida tez-tez o'tkazib turilishi lozim.

- Samarqand naqqosh ustalarining yutuqlari bilan o'quvchilarni tanishtirib borish uchun harakat qilish lozim bo'ladi. Asosan bu amaliy san'at yo'nalishiga doir kollejlarda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shularni maktab o'quvchilari davridanoq tayyorlab borish kun talabidir.

Tadqiqotimizning borishida o'rgangan va tahlil qilgan ishlarimizdan iborat bo'lgan yangiliklarni, dars ishlanmalarini noan'anaviy tarzda o'tkazib, fanni chuqurlashtirish amaliy san'atni o'qitishni rivojlantirishning asosiy sharti deb hisoblaymiz. Agar Samarqand naqqoshlik an'alarini davom ettirib kasb-hunar kollejlarida chuqur o'rganilsa uning rivojlanishiga samarali ta'sir etgan bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.:«O'zbekiston» 1999 yil. 62 bet
2. I.A.Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin». T.:«O'zbekiston» 1996 yil. 300 bet
3. I.A.Karimov «Vatan ozodligi-oliy saodat». T.: «O'zbekiston» 1999 yil. 60 bet
4. I.A.Karimov «Iroda va imon-e'tiqodimiz sinovi». T.: O'zbekiston 1999 yil. 31 bet
5. I.A.Karimov «O'zbekiston buyuk kelajak sari».T.:«O'zbekiston» 1999 yil. 682 bet
6. I.A.Karimov «Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik». T.: «O'zbekiston» 1993 yil. 45 bet
7. I.A.Karimov «Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq». T.: «O'zbekiston» 2002 yil. 30 bet
8. I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T.: «Ma'naviyat» 2008 yil, 171 bet.
9. I.A.Karimov «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostanasida». T.: «O'zbekiston» 2011 yil. 439 bet
10. A.Erkayev “Ma'naviyat – millat nishoni”. T.: Ma'naviyat, 1997, 27-bet.
11. B.Q. Xolmatov “Kompozisiya”. T: Iqtisod-moliya, 2007 yil. 172 bet
12. B.Q. Xolmatov “Naqqoshlik”. T: Iqtisod-moliya, 2007 yil. 84 bet
13. E.B.Лебедева, П.М. Черемных “Искусство художника-оформителя” М, 1981 162 стр
14. Ж. Баримбеков “Казахский орнамент”. Алма-Ата 1986 год. 114 стр
15. K.M. G'ulomov. “Amaliy san'at”. T: Iqtisod-moliya, 2008 yil . 90 bet
16. K.M. G'ulomov. “Ashyolarga badiiy ishlov berish”. T.:«Bilim»,2004 yil. 80 bet
17. K.M. G'ulomov, S.S. Bulatov «Sharqona usta shogird odobi» O'zR.OO'MTV o'quv adabiyotlari, jurnal va byuletenlarni nashrga tayyorlash markazi, 2000 yil. 120 bet

18. M. Imomnazarov “Ma’naviyatimizning takomil bosqichlari”. Toshkent: Sharq, 1996, 46 bet.
19. M.X. Mirzaahmedov “Yog’och o’ymakorligi”. T: O’qituvchi, 1995 yil. 62 bet
20. M.K. Mirzahmedov. “Boshlang’ich naqsh ishlash metodikasi”. T: O’qituvchi, 1976 yil. 56 bet
21. M.T. Семенова “Народное искусство и его проблемы”. М., 1977 год. 117 стр
22. Q.Q. Qosimov. “Naqqoshlik”. T: O’qituvchi, 1990 yil. 97 bet
23. С.А. Соловев “Декоративное оформление”. М, 1987 год. 56 стр
24. S. S. Bulatov. “Rangshunoslik”. T: O’qituvchi, 2009 yil. 160 bet
25. S. S. Bulatov va M. Ashirovlar.”Amaliy san’at atamalar lug’ati”. Toshkent: Ensiklopediya bosh red. , 1991 yil. 86 bet
26. S.S. Bulatov, L. Dadashev “Naqsh alifbosi”. T: Cho’lpon, 1999 yil. 58 bet
27. S. S. Bulatov “Ganchkorlik va naqqoshlik yog’och o’ymakorligi atamalariga izoxli lug’at”. Toshkent: Mehnat, 1991 yil. 89 bet
28. S. S. Bulatov, Xaydarov. M. “Xunarmandchilik duolari”. Toshkent: 1994 yil. 60 bet
29. S.S. Bulatov “O’zbekiston halq amaliy bezak san’ati”. T: Mehnat, 1991 yil. 384 bet.
30. S.S. Bulatov, Ashurova M.O. “Amaliy san’at qisqacha lug’ati”. T: Qomuslar bosh tahririyati, 1992 yil. 64 bet
31. H. Egamov. “Buyoqlar bilan ishlash”. T: O’qituvchi, 1981 yil. 116 bet
32. www.n.b.g.t.intal.uz.

ILOVALAR


Kasb –hunar kollejlariida amaliy san’atni bilishiga oid o’quvchilar uchun savolnoma.


I-ilova

So’rovnoma.

1. Siz amaliy san’at deganda nimani tushunasiz?
2. Naqqoshlik maktablari qaysilar?
3. Mashhur naqqosh rassom-ustalar kimlar?
4. Qanday naqshlar bilan bezatilgan me’morchilik bor?
5. Samarqand naqqoshligi nima?
6. Kamoliddin Behzod kim bo’lgan?
7. Nima uchun Mirak naqqosh deyiladi?
8. Amaliy san’atning qanday turlarini bilasiz?
9. Dizayn ham amaliy san’atga doirmi?
10. Naqqoshlik faniga qiziqasizmi? nima uchun ?
11. Siz naqqoshlikning rivojini qanday tushunasiz?
12. Naqsh san’ati to’g’risida nima deysiz?
13. Samarqand naqqoshlik maktabi qanday?
14. Amaliy san’at O’zbekistonda qanday rivojlangan?
15. Amaliy va naqqoshlik san’atini siz yaxshi ko’rasizmi?

Amaliy san'at va naqqoshlik bo'yicha foydalanilgan manbalar. 2-ilova.









Samarqand naqqoshlik san'ati asarlaridan namunalar. 3-ilova.

